

«YANGI O'ZBEKISTON» MASSIVLARI:

100 trillion evaziga 6 mingta ko'p qavatli uy qurilib, 250 ming oila «vatan»li bo'ldi. 45 ming oilaga esa 2.4 trillion so'mlik subsidiyalar berildi.

PREZIDENT SHAHKAT MIRZIYEV 12-MART KUNI JORIY YILDA UY-JOYLAR HAMDA «YANGI O'ZBEKISTON» MASSIVLARI QURILISHI BO'YICHA YIG'ILISH O'TKAZDI.

2-sahifa

DEPUTATLAR YAKKASAROY VA UCHTEPANI O'RGANIB, HAYRATGA TUSHISHDI

3s

«KATTA QIRG'IN!» ko'chasi «quritgan» yana bir chinor


QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



milliy tiklanish

№ 9 (1241) 2024-yil 13-mart, chorshanba Adadi — 5 036

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi



FRAKSIYA HUKUMATNI ESHITMOQCHI

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida «Yoqilg'i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlari hamda ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibi yanada takomillashtirilgan munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Fraksiyada

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda yurtimizda yoqilg'i-energiya resurslaridan samarali foydalanish, ularni talon-toraj qilish holatlarining oldini olish, sohaga investitsiya jalb etish orqali bozor mexanizmlarini joriy etish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, yoqilg'i-energetika sohasida davlat nazoratini ta'minlash borasida bir qator muammolar saqlanib qolyapti. Jumladan, yoqilg'i-energiya resurslarini ishlab chiqarishdan boshlab iste'molchiga yetkazib berilgunga qadar

bo'lgan jarayonlarni nazorat qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari to'liq tatbiq etilmagan inson omilining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lyapti.

Belgilangan normaga ko'ra, Majburiy ijro byurosi organlariga taqdim etilayotganda ijro hujjatlariga iste'mol qilingan energiya va ichimlik suvi uchun majburiy to'lovlarni undirish to'g'risidagi ariza vakolatli organga yoki mansabdor shaxsga berilguniga qadar qarzdor — yuridik shaxs energiya va suv ta'minotidan uzilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi belgilangan. Biroq jismoniy shaxslar uchun bunday talab mavjud emas va ushbu qonun loyihasi bilan endilikda mazkur normani jismoniy shaxslarga ham qo'llash taklif etilyapti.

“Joriy yilning o'tgan davridagina 7 713 nafar qarzdor iste'molchi bo'laturib, ularni tarmoqdan uzish imkoni bo'lmadi.”

Davomi 2-sahifada



Navoiy ovozi Parijda yangradi

Dunyoga mashhur britaniyalik xonanda, bastakor, cholg'u ijrochisi Sami Yusuf Parij filarmoniyasida konsert berdi.

Ushbu konsertda ilk marotaba o'zbek san'atkori — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ilyosbek Arabov ishtirok etib, Alisher Navoiy g'azaliga bastalangan qo'shiqni ijro etdi. Ikki kunlik konsertda Afrika davlatlari, Fransiya, Turkiya, Eron, ozarbayjonlik san'atkorlar bilan birga, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Ilyosbek Arabov ham ishtirok etdi.

Ikki mohir san'atkor buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiga murojaat etib, uning «Qaro ko'zum» g'azalini ijro etgani e'tiborga loyiqdir. O'zbekistonga, mumtoz adabiyotimizga mehri baland bo'lgan Sami Yusuf Navoiy g'azalini kuyga solgan bo'lsa, uni ham yurtimiz Ilyosbek Arabov yuksak mahorat bilan ona tilimizda ijro etdi. Aytish kerakki, Sami Yusuf 2022-yil Mustaqillik bayrami arafasida Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Samarqandda bunyod etilgan zamonaviy sayyohlik majmuasining tantanali ochilish marosimida «Bog'iy shahar dostoni» musiqiy dasturida bir qator qo'shiqlar ijro etgan edi. Asli kelib chiqishi ozarbayjonlik bo'lgan Sami Yusuf buyuk Navoiy ijodiga alohida ehtirom va hurmat bilan qaraydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ilyosbek Arabov ijodida milliy mumtoz ashulalar, maqom namunalar alohida o'rin egallaydi. Betakror ovoz sohibi ijodining e'tiborli jihati shundaki, u asosan jonli ijroda, o'ziga xos tarzda kuylashi bilan muxlislar mehrini qozongan san'atkordir.

N.USMONOVA, O'ZA

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

3s ENDI FRAKSIYA TRANSPORT VAZIRINING AXBOROTINI ESHITADI

5s «BAXSHICHILIK VA AN'ANAVIY XONANDALIK HAFTALIGI»

HEY BOLA, DARSDA

TELEFON ISHLATMA!



QUSH UYASIDA KO'RGANINI QILADI!

CHINGIZXON

MO'G'UL BO'L(MA)GAN

Qadimgi O'zbekiston zaminida, jumladan, ko'hna Xorazmda Qiyot nomi bilan bog'liq toponimlarning ko'pligidan bu urug'ning yurti aynan shu makon bo'lganligi oydinlashadi. Buyuk bobimiz Beruniy Qiyot kentida tug'ilgan (4-sentyabr 973-yil), ulug' o'zbek shoiri Ogahiy esa 1809-yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida tug'ilib, 1874-yili vafot etgan.

6-sahifa



BUGUN DUNYO BO'YICHA 7,2

milliarddan ortiq odam o'z mobil telefoniga ega. Smartfonlardan foydalanish shu darajada ommalashdiki, hatto kichik yoshdagi bolalar ham ota-onasining telefonidan bemalol foydalanishmoqda.

UY-JOYLAR QURILISHI SOHASIDAGI VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni joriy yilda uy-joylar hamda «Yangi O'zbekiston» massivlari qurilishi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida barcha hududlarda yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Shu bilan birga, odamlarning xarid imkoniyatini kengaytirish uchun to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Unga muvofiq, o'tgan davrda barcha manbalardan 100 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Bularning hisobiga hududlarda 6 mingta ko'p qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila yangi boshpanali bo'ldi. Daromadi yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2,4 trillion so'mlik subsidiyalar berildi.

Jumladan, o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha 85 mingta yoki 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'p xonadon qurildi. Aholiga 17 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi. Aholi sonining o'sishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilgi dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan. Yig'ilishda shu boradagi chora-tadbirlar muhokama qilindi. Avvalo yangi uylarning sotuv narxi va sifatiga e'tibor qaralib, nomutanosibliklar ko'rsatib o'tildi. Mutasaddilarga qurilish tannarxini pasaytirish va uylar sifatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Shu maqsadda, taklifni ko'paytirish uchun ko'p qavatli uy-joylar qurilishiga qo'shimcha yerlar auktsionga chiqarilishi belgilandi. Davlatimiz rahbari bu sohada aholi va quruvchilar uchun qator yangi imkoniyatlar berilishini ma'lum qildi.

Bu yil ipotekani moliyalashtirish uchun barcha manbalardan 22,5 trillion so'm yo'naltiriladi. Jumladan, ipoteka kreditlari uchun qariyb 10 trillion so'm, daromadi yuqori bo'lmagan 20 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovini qoplash uchun 2,3 trillion so'm beriladi. Pudrat tashkilotlarining aylanma mablag'ini ko'paytirish uchun 500 milliard so'm resurs yo'naltiriladi. Bunda yillik 16 foiz stavkada 12 oylik imtiyozli davr bilan 18 oyga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Bu maqsadlarga banklar ham o'z mablag'larini kiritadi. Qurilish ishlari hamda aholining uy-joy sotib olishi uchun ham qo'shimcha

yengilliklar yaratiladi. Xususan, endi 5 qavatli uylarni barpo etishga kamida «qoniqarli» va 9 qavatli uylarga «o'rta qoniqarli» reytingiga ega bo'lgan pudratchilar jalb qilinadi. Bu – qo'shimcha 2 mingga yaqin pudratchiga yo'l ochib beradi. Turar joylar qurilishida «yashil» standart joriy qilinadi. U asosida bunyod etiladigan uy uchun pudratchilarga kreditlar bir foiz past, ya'ni yillik 15 foiz stavkada beriladi. Pudratchilarga kreditlar bo'yicha kafillik berish va foiz xarajatini qisman qoplashga Tadbirkorlik kompaniyasi tomonidan 200 milliard so'm yo'naltiriladi. Uy qurilishi uchun maxsus texnikalar importi bo'yicha berilgan bojxona imtiyozlari yana bir yilga uzaytiriladi.



“ KAMBAG'ALLIKDAN CHIQRISH DASTURIGA KIRGAN VA TURAR JOYI NOCHOR AHVOLDAGI OILALARGA, «MAHALLA YETTILIGI» TAVSIYASI ASOSIDA, O'Z HOVLISIDA UY QURISH VA TA'MIRLASHGA 120 MILLION SO'MGACHA IPOTEKA KREDITI AJRATISH YO'LGA QO'YILADI.

Bundan buyon ipoteka kreditlari bo'yicha garovga olinadigan uyni sug'urtalash talabi bekor qilinadi. Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kirgan va turar joyi nochor ahvoldagi oilalarga, «mahalla yettiligi» tavsiyasi asosida, o'z hovlisida uy qurish va ta'mirlashga 120 million

so'mgacha ipoteka krediti ajratish yo'lga qo'yiladi. Bunda kreditning 15 foizi va dastlabki besh yilda foiz stavkasining 6 foizgacha bandi byudjetdan qoplab beriladi. Aholiga bu borada ko'maklashishda Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi muhim o'rin tutadi. O'tgan

uch yilda uning kredit portfeli 3 trillion so'mdan oshdi. Ushbu kompaniya ustav kapitalini 100 million dollarga yetkazish, xorijiy mablag'lar jalb etishni kengaytirish vazifasi belgilandi. Yig'ilishda «Yangi O'zbekiston» massivlarini barpo etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Bugungi kunda hududlarda 38 ta massiv qurilishi boshlangan. Joriy yilda yana 17 ta massiv bunyod etish ko'zda tutilgan. Lekin ayrim joylarda kechikish holatlari bor. Masalan, Surxondaryo, Andijon, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida qurilish ishlari ortda qolmoqda. Shu bois har bir massiv kesimida manzilli ro'yxatni tasdiqlab, bunyodkorlik ishlari jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Davlatimiz

rahbari bunda asosiy talablar – sifat, muddat va tannarx ekanini ta'kidladi. Ayrim noinsof quruvchilar xaridorlar ishonchini suiiste'mol qilayotgani qayd etilar ekan, ulushdorlik asosida uy-joy barpo etishda aholini himoya qilish tizimini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, yer auktsionida qatnashadigan qurilish va pudrat tashkilotlarining moliyaviy salohiyatiga minimal talablar joriy qilinishi belgilandi. Ba'zi hududlardagi eski uylar renovatsiya asosida yangilanib, odamlarga zamonaviy sharoitlar yaratilishi qayd etildi. Bosh vazir o'rinbosari va viloyat hokimlari qurilish ishlari tashkil qilish rejalarini yuzasidan axborot berdi.

O'ZA

Partiya loyihalari

✓ Fraksiyada

(Boshlanishi 1-sahifada)



VAZIFA
2024

SAYLOVOLDI DASTURI

NATIJA
2024

QONUNI



VAZIFA
2024

SAYLOVOLDI DASTURI

NATIJA
2024

FARMONI



FRAKSIYA HUKUMATNI ESHITMOQCHI

Zero, joriy yilning o'tgan davridagina 7 713 nafar qarzdor iste'molchi bo'laturib, ularni tarmoqdan uzish imkoni bo'lmadi. Oqibatda qarzdorlik o'z vaqtida uzilmagan va bu MIBning mazkur toifadagi hujjatlar ijrosini ta'minlashda ortiqcha vaqt, kuch va vositalar sarflashiga sabab bo'lgan.

Vaholanki, 2022-yilning 1-iyunidan ishga tushirilgan Byuroning axborot texnologiyalari yordamida masofaviy ishlaydigan 15 ta tumanlararo bo'limlari tomonidan fuqarolar ishtirokisiz va majburiy ijro harakatlari o'tkazilmasdan 2,7 mln. ta (1 trln. so'm) hujjat ijro qilingan. Mazkur tumanlararo bo'limlarning bir nafar xodimi tomonidan bir oyda o'rta olti baravar ko'p hujjatlar ijrosi ta'minlanmoqda.

Bundan tashqari, kam ahamiyatli bo'lgan pochta xarajatlarini ham majburiy ijro harakatlari o'tkazmasdan ijro ishini soddalashtirilgan tartibda yuritish zarurati mavjud. Shu bois, pochta xarajatlari uchun majburiy to'lovlarni undirish to'g'risidagi sud hujjatlarini soddalashtirilgan tartibda yuritish tatbiq etilmoqda.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov qonun loyihasiga munosabat bildirib, bugun aholi deyarli to'liq «aqlii hisoblagich»lardan, ya'ni masofadan boshqaruv tizimidan foydalanayotgan bo'lsa, bunday muammo qayerdan paydo bo'lmoqda, degan savolni o'rtaga tashladi.

Tegishli qaror bilan iste'molchilar to'liq ushbu tizimga o'tkazilishi kerak edi. Demak, yuqoridagi kabi muammolarning paydo bo'lishi aslida aholi to'liq «aqlii hisoblagich»lar bilan ta'minlanmaganida, – dedi fraksiya rahbari.

Fraksiya a'zosi Davron Aripov ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab, birgina Bekobod tumanining o'zida 3000 fuqaro ushbu masalada murojaat qilganini, ishlab chiqaruvchi tashkilot ikki yildan buyon «aqlii hisoblagich»larni yetkazib berolmayotganini ma'lum qildi.

Qonun tashabbuskorlari bu savolga javob qaytarar ekanlar, bu Majburiy ijro byurosining xizmat doirasidan tashqaridagi masalalar ekanini, bu ishlarga energosotish idoralari mas'ul bo'lib, MIB qarzdorlikni faqat sud qaroridan keyin undirish bilan shug'ullanishini bildirdilar.

Qizg'in muhokamalardan so'ng fraksiya a'zolari aholi nima uchun shu paytga qadar to'liq «aqlii hisoblagich»lar bilan ta'minlanmagan masalasi Hukumat eshituvini o'tkazish taklifini ko'tarib, qonun loyihasini birinchi o'qishda ma'qulladilar.

Yig'ilishda «Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani (Rim, 1961-yil 26-oktyabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy turdosh huquq

egalarining ijro, fonogramma, eshittirishlarga bo'lgan huquqlari Bern konvensiyasi bo'yicha mualliflik huquqi doirasida muhofaza etiladi. Biroq o'rganishlarda aniqlanishicha, xorijiy huquq egalarining ijrosidan, fonogramma va eshittirishlar tayyorlovchi tashkilotlarning eshittirishlaridan foydalanish noqonuniy asosda amalga oshirilish holatlari ko'p uchramoqda.

O'zbekistonning xalqaro konvensiyaga qo'shilishi shubhasiz, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yidagi faoliyatni tartibga solishga xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Rim konvensiyasi ishtirokchisiga aylangach, bu boradagi xalqaro standartlarni ro'yogga chiqarishni o'z zimmasiga oladi hamda bozor munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizning jahondagi imji, investitsion jozibadorligini oshirish hamda Jahon savdo tashkilotiga kirishida ham intellektual mulk bilan bog'liq qoidalarni implementatsiya qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, bugunga kelib dunyoning 97 ta davlatini birlashtirgan Rim konvensiyasi funksiyalarining ma'muriy boshqaruvi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan BM'ning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ravshan MAHMUDOV, «Milliy tiklanish» muxbiri



BIZGA NOMOFOBIYA TAHDID SOLMOQDA

Keyingi paytlarda asr vabosi deb atalayotgan giyohvandlik va ichkilikbozlikka tenglashtirilayotgan nomofobiya kasalligi ham keng tarqalmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo bo'yicha 7,2 milliarddan ortiq odam o'z mobil telefoniga ega. Smartfonlardan foydalanish shu darajada ommalashdiki, hatto kichik yoshdagi bolalar ham ota-onasining telefonidan bemalol foydalanishmoqda.

Dunyo mamlakatlarini xavotirga solayotgan bunday holat mamlakatimiz uchun ham begona emas. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda respublikamizda har 100 ta xonadonga o'rtacha 308 ta mobil telefon to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda ayniqsa, bolalarning telefonga qaramligi dolzarb muammoga aylandi. Ammo ota-onalar bu holatning yaqin kelajakda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligiga e'tibor qaratishmayapti.

Vaholanki, mobil telefonidan uzoq vaqt, betartib foydalanish insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, telefon o'zidan inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan elektromagnit to'lqinlar chiqaradi. Bunday to'lqinlardan nurlanishning zarari kichik yoshdagi bolalar uchun yanada kuchliroq bo'lib, ularda immunitetning pasayishiga, asab tizimida buzilishlarga sabab bo'ladi.

Inson gazeta o'qiganda uni 40 sm masofada ushlaydi, kompyuterda ishlaganda

ekrandan 60-70 sm masofa saqlanadi. Telefonidan foydalanganda, bu masofa 20-30 santimetrga tushadi, yosh bolalarda undan ham kam bo'ladi va bu yaqinlik xavfli tus oladi. Shu bilan birga, bolalar telefonidan foydalanishda mijja qoqishni unutishi esa ko'zning zo'riqishini kuchaytiradi. Natijada foydalanuvchida ko'zning turli kasalliklari paydo bo'la boshlaydi.

Bundan tashqari, telefonidan uzoq vaqt foydalanish bolada idrokni o'zgartiradi,

xabar yubora olmasa yoki javob ololmasa o'zini yolg'iz his qila boshlaydi. Qo'rquv va doimiy tashvish real hayotda yashashiga xalaqit qiladi.

Xo'sh, ushbu kasallikning oldini olish mumkinmi? Buning uchun nima qilish kerak?

Fikrimcha, ota-onalar o'z farzandlarini nomofobiyadan saqlashlari uchun unga kun tartibini belgilash va telefonidan samarali foydalanishga yordam berishlari lozim. Masalan, ishdan keyin birgalikda uy ishlarini qilish va dars tayyorlash orqali

” **NOMOFOBIYA KASALLIGI INSONNING KUNDALIK HAYOTIGA HAM SALBIY TA'SIR KO'RSATADI. XUSUSAN, INSONDA O'ZIGA ISHONCH VA O'Z HAYOTIDAN QONIQISH HISSI SEZILARLI DARAJADA PASAYADI.**

unda ruhiy o'zgarishlar yuz beradi, umurtqa pog'onasi bilan bog'liq turli xastaliklar rivojlanadi. Bolaning ijtimoiy moslashishida ham muammolar kelib chiqadi. Bunday bolalarda darsni o'zlashtirishdan orqada qolish, o'rtoqlari bilan chiqisha olmaslik, dunyodan uzilish tufayli boshqalar bilan muloqot qilishi qiyin kecha boshlaydi.

Nomofobiya kasalligi insonning kundalik hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, insonda o'ziga ishonch va o'z hayotidan qoniqish hissi sezilarli darajada pasayadi. Odam telefon orqali

farzandiga shaxsiy namuna ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, ota-onalar zarur bo'lmagan paytda va uxlashdan oldin telefonni uzoqroqqa qo'yishi, kamida oyiga bir dam olish kunini "telefonsiz kun" deb belgilab, to'liq vaqtini farzandlar bilan o'tkazsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ushbu kasallikning oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlar samarasi yanada oshadi.

Zumrad BEKATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



Otobek JIYANBAYEV,
partiyaning
Toshkent shahar
Kengashi raisi

DEPUTATLAR YAKKASAROY VA UCHTEPANI O'RGANIB, HAYRATGA TUSHISHDI

Keyingi bir yildagi faoliyatimizni tahlil qilib, shunga ishonch hosil qildikki, saylovchilar bilan o'tkazilgan 100 dan ortiq sayyor qabullar paytida eng ko'p murojaatlar yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suvi va uy-joy masalalari yuzasidan bo'ldi. Shu davr mobaynida esa 500 dan ortiq saylovchilar muammolari bilan tanishib, 100 ga yaqin deputatlik so'rovlarini chiqardik. Aytish kerakki, saylov okrugidagi aholi murojaatlarining 98 foizi ijobiy hal bo'ldi.

Kuni kecha doimiy komissiya yig'ilishida Toshkent shahar obodonlashtirish boshqarmasi hisobotini eshitdik. Unda ko'tarilgan muammolarni deputatlar bilan joylarga chiqib o'rgandik. Ilk manzilimiz Uchtepa tumanidagi obodonlashtirish boshqarmasi idorasi va korxonasidagi mavjud texnikalarni saqlash joyi bo'ldi. Afsuski, tumanning obodonlashtirish idorasi xodimlari uchun berilgan bino talab darajasida emas. Shu sababdan mavjud texnikalarni saqlash holati ham achinarli ahvolda.

– Uchtepa tumani hokimligiga bino so'rab ko'p bora murojaat qildik. Uch yildan buyon yangi bino berilishi aytiladi. Mazkur joyda o'ttizga yaqin texnika, supuruvchi suv-sepuvchi, yuk tashuvchi traktorimiz bor. Ish yaxshi tashkil qilingan, ammo sharoit yaxshi emas. Joy muammosini hal qilishda amaliy yordam kerak, – deydi Toshkent shahar obodonlashtirish bosh boshqarmasi boshqaruvchisi o'rinbosari Ravshan Fozilov.

R.Fozilovning aytishicha, poytaxtimizning Sergeli, Yangiyahot va Yunusobod tumanlarida obodonlashtirish idorasi namunali holatda. Ammo aksariyat tumanlarda obodonlashtirish idorasining o'z joyi yo'q. Jumladan, Yakkasaroy tumanida obodonlashtirish idorasi o'ziga ajratilgan joy yo'qligi sabab mahalla idorasidan vaqtinchalik qo'nim topgan. Bu milliard-milliard so'mlik zaruriy texnikalar ko'chada, qarovsiz qoldirilaypti, deganidir.

Ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda ekologik vaziyatni yaxshilash, chang, qum bo'ronlarining atrof muhitga zararli ta'sirlarini oldini olish maqsadida «Yashil makon» umummilliy loyihasi asosida bo'sh hududlarga daraxt ko'chatlari ekilyapti. Biroq o'rganishlar davomida ko'p joylarda

sug'orish tizimi umuman mavjud bo'lmagan joylarga ham nihollar ekilganiga guvoh bo'ldik. Oqibatda nihollar nobud bo'lyapti. Shu asosda, Nazarbek ko'prigi yonida tashkil etilgan yashil hududga yoz faslida suv kelmasligi, aholi xonadonlari bir muncha uzoqligini inobatga olib, daraxtlarni qurib qolishini oldini olish maqsadida sug'orish tizimini tashkil qilish masalasida mutasaddilar bilan muloqotda bo'ldik.

Bu yil hisobidan yana ko'chat ekish mavsumi boshlandi. Bu jarayonda har bir hududdagi mas'ul tashkilotlar Obodonlashtirish bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda ish olib borishga, yuqoridagi kabi ko'ngilsiz holatlar yuz bermaydi. Sababi boshqarma qo'lida sug'orish tizimi yo'lga qo'yilgan va endilikda sug'orish yo'lga qo'yish reja qilinayotgan yerlarning xaritasi bo'lib, shu joylarga daraxt ekilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Taxminlarga ko'ra, joriy yilning yozi kutilganidan issiq bo'ladi.

Navbatdagi o'rganish manziliboshqarmaning daydi itlarni saqlash maqsadida tashkil etilgan maskani bo'ldi. Qarovsiz qoldirilgan itlarni tutib, olib kelish avttransport vositasi, saqlashga mo'ljallangan qafaslarni ko'zdan kechirganimizda itlar uchun qo'shimcha qafaslar va oziq-ovqatlar zaxirasini tashkil etishga ehtiyoj yuqoriligini ko'rdik. Bu borada ko'ngilli tadbirkorlarni jalb etishni rejalashtirdik. Doimiy komissiya a'zolari bilan birgalikda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha nazoratni olib borishga kelishib oldik.

Shu o'rinda aksariyat deputatlarimiz o'z vazifalariga sustkashlik bilan qarashayotganini ham ta'kidlash joiz. Eng muhimi, xalq ishonch bildirgan vakil saylovchi oldidagi mas'uliyatini doimo his qilishi shart. Shundaygina yuqoridagidek muammolar kamroq uchraydi.

✓ Kuting!

Feruza MUHAMMADOVA

O'ZBEKISTON NAFAQAT BOSHQA DAVLATLARNING TA'JIRIBASINI O'RGANADIGAN, BALKI O'RGATADIGAN MAMLAKATGA AYLANDI

Kelgusi sonlarda

✓ Tahlil

ENDI FRAKSIYA TRANSPORT VAZIRINING AXBOROTINI ESHITADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Reglamentiga muvofiq, har oyning so'ngi o'n kunligida deputatlar saylov okruglariga chiqib saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishi belgilangan. Shunga asosan joriy yilning 28-fevral – 2-mart kunlari deputatlar saylov okruglarida o'z saylovchilari bilan uchrashuvlari tashkil etildi.

O'rganishlar davomida hududlarda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, imkoniyati cheklangan yoshlarning ta'lim olishiga yaratilgan sharoitlarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, deputatlar saylovchilar tomonidan ko'tarilgan masalalarni hal etish, bunda parlament nazorati shakllaridan samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratib, aholi tomonidan ko'tarilgan muammolarni mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda joyida hal etish choralarini ko'rdilar. Uchrashuvlar davomida «Milliy tiklanish» fraksiyasi a'zolari 2583 nafar fuqaro, shu jumladan 151 nafar tadbirkor bilan uchrashib, ularni o'ylantirayotgan hayotiy masalalarni muhokama qildilar. Ochiq muloqotlarda saylovchilar tomonidan jami 112 ta masala ko'tarilib, unda ijtimoiy soha obyektlarini ta'mirlash va qurish, uy-joy-kommunal, sog'liqni saqlash, aholi bandligi, transport va yo'l qurilishi, ta'lim, tadbirkorlik, bank-kredit va boshqa sohalarga oid muammolar yuzasidan murojaatlar bo'ldi. Partiyadan saylangan deputatlar tomonidan esa ko'tarilgan masalalarning 30 foizga yaqini joyida hal etildi. Qolgan masalalarni tuman va shahar darajasidagi mahalliy ijro hokimiyati bilan birgalikda hal etish choralarini ko'rdi. Deputatlar, shuningdek, saylovchilarga «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining mazmun-mohiyati va ahamiyati

xususida atroficha ma'lumotlar berdilar. Hududlarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sohaning iqtisodiy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishohotlar hamda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarning mazmun-mohiyati aholiga yetkazilib, 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, investitsiya, eksport va sanoat sohalarini rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar xususida axborotlar berildi. Shu bilan birga uchrashuvlar davomida M39 avtomobil yo'lining vazn va hajm parametrlarini nazorat qilish punktlarini modernizatsiyalash va zamonaviy texnik vositalar bilan qay darajada ta'minlanganligini o'rganish maqsadida joylarda o'rganishlar ham olib borildi. Xususan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalarining vazn va hajm parametrlarini nazorat qilishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining ijrosi talab darajasida emasligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib «Transport vositalarining vazn va hajm parametrlarini nazorat qilishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosining holati bo'yicha fraksiya tomonidan navbatdagi yig'ilishlarda O'zbekiston Respublikasi transport vazirining axborotini eshish taklifi bildirildi.

Hamdam NIYOZOV,
partiya Markaziy kengashi bo'lim boshlig'i

Bizni endi
mtgazeta.uz
saytida ham kuzating

http://www

«Ishonch» gazetasi navbatdagi sonida e'lon qilingan «O'zgarishsiz o'zgarayotgan ta'lim...» maqolasi ko'pchilik e'tiborini tortgani bejiz emas.

Maqoladagi «dard»lar aslida hech birimizga begona emas. «Milliy tiklanish» g'oyasiga hamohang bo'lgani uchun ham ushbu maqolani ko'chirib bosishga qaror qildik. Maqola muallifi kuyunganidek, bugun har qancha islohot olib borilmasin, maktablar ularni chirmovuqdek o'rab olgan ayrim muammolardan qutulolmayapti. Har bir zamonning eng og'riqli nuqtasi – ta'limdagi kamchiligi ayrim «o'yin»lar haqida «ichimizdagi» gaplarni yozgan muallif Alijon Abdurahmonovga minnatdorlik bildirib, ushbu mavzuni o'zini hurmat qilgan har bir nashr o'z o'quvchisiga yetkazsa maqsadga muvofiq bo'lardi deb hisoblaymiz.

USH UYASIDA KO'RGANINI QILADI!

XULQI VA RUHIYATI UYIDA O'ZGARGAN O'QUVCHINI MAKTAB TARBIIYALASHI QIYIN...

Bilganlarimni boricha bayon qilishdan avval bir gap: men ta'limga befarq va begona emasman. Chunki otam ham, onam ham o'qituvchilik qilishgan. Hozirda akam bilan ukam ham o'qituvchi. Qolaversa, tanish-bilishlarim orasida ham muallimlar ko'p. Shunday ekan, gapiraman desam, gap ko'p, aslida esa... Keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq ayanchli va achinarli holatlar ko'p kuzatilmoqda. Ular orasida eng ko'p uchraydigan «kin» – o'qituvchi o'quvchini urgan va yoki aksincha. Bilmadim, muallimning o'quvchiga qo'l ko'tarishini (sababsiz oqibat bo'lmaydi) qaysidir ma'noda tushunish mumkindir. Ammo ota-ona yoki o'quvchining muallimga qo'l ko'tarishi yoki haqorat qilishini hazm qilib bo'lmaydi. Bugun o'qituvchilarga qiyin. Chunki o'quvchilar orasida sirkasi suv ko'tarmaydigan bezbetlar ko'p. Ular to'g'ri talabni hech vaqt to'g'ri qabul qilishmaydi. Sal narsaga «bosh ko'tarishadi» yoki ota-onasini maktabga boshlab kelishadi. Bunday boshq'riqlardan bezgan o'qituvchi nima qiladi? «Bor-ye...» deb, beparvo bo'ladi-qoladi. Bundan kim yutqazadi? Albatta, jamiyat!

Tan olish kerak, o'qituvchilar orasida institutni «koridor»da o'qib, tugatganlar ham «achib yotibdi». Bu achchiq haqiqat, ya'ni o'qituvchilarning bilimsizligi, savodi va saviyasi haminqadarligi ayrim dars jarayonlaridan tasvirga olinib, internetga joylanayotgan lavhalarda ham yaroq ko'zga tashlanyapti. Bir qarashda kulgili tuyulgan bu tasvirlarni ko'rib, ko'pchilik rosa «qotyapti». Yo'q, aslida, kuyish kerak, kuyish...

Bundan bir necha yil burun Andijon viloyatining Marhamat tumanida o'tkazilgan bir «tadbir» internetni «portlatib», ta'limga oid «poyga»da «uloqni ilib ketgandi». O'shanda mutasaddi va mas'ullarning «marhamati» bilan o'qituvchilar doskaga, yo'g'-ye, sahnaga chiqib, (o'quvchilarning o'qishga kirish darajasi pastligi uchun) ota-onalardan uzr so'rashgan edi.

Ochig'i, o'sha uzr so'rash «pandemiyasi»ning Marhamatdagi ko'rinishi bu – illyuziya! Afsuski, bu holat boshqa bir hududda, boshqa bir tumanda, boshqa bir maktabda ham kuzatilishi mumkin edi. Chunki...

BIZ BOSHQACHAMIZ...

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyada iqtisodiy tanglik kuzatiladi. Zo'rg'a kun ko'rayotgan odamlar soliqlarni to'lashmaydi. Shunda hukumat bu og'ir vaziyatdan chiqish, bo'shab qolgan budgetni shakllantirish uchun antiqa yo'l tutadi. Hukumat qarori bilan maktabga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vakolat beriladi, ya'ni soliqlarni to'lamagan kishilarning farzandlari maktabga qo'yilmaydi. Qachonki, ota-ona to'lovlar to'langani to'g'risidagi «kvitansiya»ni maktab ma'muriyatiga taqdim etsagina, farzandi o'qishga qabul qilinadi yoki sinfdan sinfga o'tkaziladi. Bu yondashuv tezda o'z samarasini beradi. Yaponlar bolalarini o'qitish uchun tish kavagida asralgan narsalardan ham voz kechishadi.

Endi tasavvur qiling: bizda ham shunga o'xshash «yangilik» joriy qilinsa, nima bo'ladi? Menimcha, maktablar huvillab qoladi. U-bu narsasini sotib bo'lsa-da, soliqlarni to'lab, farzandini maktabga jo'natish o'rniga «Nima... yaxshi bo'libdi, bor, molingni boq», «Aravangni tort...», «Ishingni qil...» deguvchi ota-onalar hamma joyda topiladi. Topilganda qandoq!

Oramizda shunday ota-onalar borki, ular dars qilayotgan dilbandi bilan birga shug'ullanish o'rniga unga bir dunyo ish buyuradi. Yoki bahorda ekin ekish, kuzda hosilni yig'ishtirish mavsumida bolasini maktabga jo'natmasdan, mardikorlikka chiqaradigan ota-onalar yo'qmi? Bor!

Agar yaqinda joriy etilgan yangi amaliyot bo'yicha Milliy gvardiya vakillari kuzda yoki bahorda maktablardagi davomatni

tekshirishsa, menimcha, haqiqiy manzara namoyon bo'ladi. O'zi shu Milliy gvardiyani maktabga «qo'shin kiritishi» haqida ko'p fikr-mulohazalar bildirish mumkin. Bu – alohida mavzu.

Xullas, farzandining kelajagiga befarq qaraydiganlar bor ekan, o'quvchilarning bilim darajasi va davomat masalasida bechora o'qituvchilar aybsiz aybdor bo'lib qolaveradi. Aslida, bolasini mavsumiy ishlarga jo'natadigan ota-onalarning barchasini ham butkul qoralab bo'lmaydi, ularga ham qiyin. Ular imkansizlikdan, ilojsizlikdan shunday yo'l tutishadi.

Ta'lim haqida Yaponiyadan yana bir misol: Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatni oyoqqa turg'azish uchun bilimdon va yetuk kadrlarga ehtiyoj seziladi. Yaponiya imperatori hukumatdagi mulozimlarni yoniga chorlab, mamlakat bo'yicha eng iqtidorli yoshlardan 400 nafarini tanlab olishni va ularni xorijdagi nufuzli oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborishni, bu jarayonda hech qanday tanish-bilishchilikka yo'l qo'ymaslikni tayinlaydi. Shunday qilib, turli fanlar bo'yicha eng iqtidorli bolalar bir necha bosqichdan iborat imtihonlar asosida saralab olinadi. Har xil sohalar bo'yicha xorijga o'qishga yuborilayotgan yoshlarni shaxsan imperatorning o'zi qabul qilib, ulardan yaxshi o'qib-o'rganishni, chet eldagi shart-sharoitlar Yaponiyadagidan zo'r bo'lsa-da, bunga e'tibor bermasdan yurtga qaytib kelishni va bor bilim-tajribalarini mamlakat taraqqiyoti uchun sarflashni so'raydi.

Ma'lum muddatdan so'ng, o'sha 400 nafar talabdan birortasi ham xorijda qolib ketmaydi, hammasi qaytadi. Buni yurtga sadoqat deyildir!

Yillar o'tadi... Keyinchalik e'tirof etilishicha, kunchiqar yurtni dunyo tan olgan davlatga aylantirish konsepsiyasi to'rtta «ustun»dan iborat bo'lgan ekan. Va, aynan o'sha 400 nafar kadr to'rtta ustunning biri bo'ladi.

Bizda ham bir vaqtlar «Umid» jamg'armasi tashkil etilgandi. Yoshlarimiz ezgu maqsad va niyatlar bilan dunyodagi eng ilg'or mamlakatlarga davlat hisobidan o'qishga yuborilgandi. Lekin ularning hammasi vatanga qaytmadi-ku! Aynan shu qaytmaslik loyihaning to'xtatilishiga sabab bo'lmadimi? Ma'lumot uchun: «Umid» jamg'armasi ko'magida 1997 – 2003-yillar davomida dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalari (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya)ning bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlarida jami bo'lib, 828 nafar istiqbolli yoshlar tahsil olgan.

Agar taqqoslaydigan bo'lsak, bizda chetda o'qiganlar soni yaponlarga nisbatan ikki baravar

ko'p. Ammo natija?..

Darvoqe, yurtdoshlarimiz orasida turli xorijiy grantlarni utib, o'zlarini harakat va xarajat qilib, xorijda tahsil olganlar ham, malakasini oshirganlar ham ko'p. Inehunin, qaytmaganlar ham...

Xo'sh, qaytmaslikka sabab nima? Albatta, ish, taqsimot, munosabat, maosh masalasi va ayrim «toifa»lar...

«TOIFA»

Ta'limdagi kadrlarni uch toifaga bo'lish mumkin. Birinchisi – bilimli, salohiyatli; ikkinchisi – kimningdir

bemalol ishlab yuribdi. Taajjub...

Ma'lumki, har yili ta'lim sifatini yaxshilash, sohani rivojlantirish uchun budgetdan juda-juda katta miqdorda mablag' ajratiladi. Afsuski, bu mablag' to'liq maqsadli va manzilli ishlatilmayapti. Milliardlarni o'marish, o'zlashtirish bor. Ta'lim vazirligi korruptsiyaga botgan tashkilotlar ro'yxatida «kuchli beshlik»ka kirgani bejiz emas, albatta.

SAVODLI SAVODSIZLAR
Bir vaqtlar oddiy qishloq makta-

darsliklar nomigagina yangilanib, har ikki-uch yilda qayta nashr qilinaverdi, millat uchun eng kerakli fanlar – tarix, ona tili va adabiyot darslari qisqartirildi...

Qiziq, qachongacha o'qituvchilar islohotlar qurboni bo'lishadi?

ERKAKLAR KAM MAKTAB...

Agar eslasangiz, Marhamatdagi maktabda ota-onalardan uzr so'ragan o'qituvchilarning aksariyati xotin-qizlar edi.

Ha, maktablarda erkak o'qituvchilar kam, ayniqsa, shaharda! Nega erkaklar maktabdan qochishyapti? Oliy o'quv yurtini tugatib, o'qituvchilik qilmasdan yurganlar ham kam emas. Biri maosh kamligi, biri maktabdagi muhitdan ko'ngli to'lmagani, boshqasi esa ayol rahbarning ko'lida ishlash yoqmagani uchun maktabdan narida yuribdi.

Xo'sh, keyingi o'ttiz yilda pedagogika oliy o'quv yurtlarini bitirgan erkak mutaxassislarining necha foizi maktabda ishlaydi? Shunday tahlil, ma'lumot bormi o'zi? Ayollar tabiatan ko'ngilchan bo'lishadi. Agar maktablarda erkak o'qituvchilar qancha ko'p bo'lsa, bu – ta'limga ham, tarbiyaga ham, va albatta, muhitga ham ta'sir qiladi.

Biz ta'limga mas'ul o'qituvchilardan tarbiya masalasida ham ko'p narsani talab qilyapmiz. Aslida esa, tarbiya oiladan boshlanadi. Xulqi, ruhiyati uyida o'zgargan o'quvchini maktabda tarbiyalash mushkul, «qush uyasida ko'rganini qiladi».

TO'RG'A CHIYING MUALLIM!

Ijtimoiy tarmoqda «Qishloqlik o'qituvchi» degan ancha mashhur profil bor. Uning egasi ta'limga, maktab hayotiga oid bir dunyo muammolarni birda kinoya, birda hazil bilan bayon qilib turadi. Uning kulib-kuyinib yozganlari ko'pchilik uchun tanish holat, ya'ni ayni haqiqat!

Hech ahmiyat berganmisiz, joriy qilinayotgan shuncha o'zgarishlar va yangiliklarga qaragandan, tizimda holat o'zgarayapti, aksincha, «holat»lar ko'paymoqda. Nega?

Ko'p joylarda zamonaviy maktablar qurildi, shart-sharoitlar, imkoniyatlar o'zgardi, bu yaxshi, ammo, afsuski maktabda bilim berish o'zgaradi. Nimaga?

Ta'lim tizimida shunday tizim yaratish kerakki, toki ishlaydigan tizim bo'lsin!

O'qituvchining hurmati, nufuzi qachon oshadi? Qachonki, davlat va jamiyat uni hurmat qilsa, nufuzini oshirsa!

O'qituvchilik eng nufuzli kasblardan biriga aylangan mamlakatlarga bir qarang, ular qanchalar taraqqiy etgan. Bunga misollar juda ko'p va bu ko'p narsani anglatadi...

BIR VAQTLAR ODDIY QISHLOQ MAKTABINI BITIRGANLARGA HAM ROSSIYA YOKI BOSHQA DAVLATLARDAGI OLIY O'QUV YURTLARIGA KIRISH CHIKORA EDI. CHUNKI ULAR BILIMLI BO'LISHGAN. ULARGA HAQIQIY BILIMDONLAR, O'Z KASBINING FIDOYILARI DARS BERISHGAN. BUGUN-CHI?

kimi; uchinchisi – «ko'kat»ning quvvati bilan yurganlar.

Afsuski, tizimda ikkinchi va uchinchi toifadagi kimsalar ham yo'q emas. Uzoq va yaqin yillarda sohada shunday «ish»lar kuzatildiki, ularni ko'rib, yoqa ushlaysan, kishi.

O'qishni bitirib, mehnat faoliyatini boshlaganiga bor-yo'g'i ikki-uch yil bo'lgan xodimning «bir dumalab» maktab direktori bo'lib qolishi yoki uzoq yillar maktabda ishlamasdan, «Damas»da kirakashlik qilib yurgan sobiq o'qituvchining tuman xalq ta'limi bo'limiga mudir bo'lishi nimani anglatadi? Yoki ishi, faoliyati umuman qoniqarsiz deb topilib, hisobot yig'ilishida mudirdan gap eshitib, hamkasblari (maktab direktorlari) oldida izza bo'lgan rahbarning ertasi kunioyq boshqa maktab jamoasiga direktor sifatida tanishtirilishi – bu nima? Bu – yashasin, tanish-bilishchilik, bor bo'lsin, korruptsiya degani!

Ta'limda yana shunday toifadagi kishilar borki, ular uchun xalq ta'limi – «yetti xazina»ning biri. Men bir mudirani bilardim. U maktablarga ta'lim sifatini oshirish, shart-sharoitlarni yaxshilash uchun emas, ko'proq «yig'-yig'», «ber-ber» uchun borardi. U ulug' dargohlardan pullashga arziydigan narsalarni olib ketishga «astoydil» harakat qilardiki, kerak bo'lsa, buzib-uzib olib ketardi. Yana bir maktab direktori o'qituvchilarga (bildirmasdan) mukofot pullari yozib, «yutib yuborgan». Eng qizig'i, bu holatdan ta'lim mudiri xabardor. Ammo direktor bir yildan beri

bini bitirganlarga ham Rossiya yoki boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlariga kirish chikora edi. Chunki ular bilimli bo'lishgan. Ularga haqiqiy bilimdonlar, o'z kasbining fidoyilari dars berishgan. Bugun-chi?

Bugun maktablarda bilimsizlik borligi bor gap. O'z ustida ishlaydigan o'qituvchilar kam. Qog'ozbozlik ko'p, tadbirbozlik ko'p. O'yinqaroq o'quvchilar uchun kim darsni bo'sh o'tsa, kim talabchan bo'lmasa, o'sha – eng zo'r muallim.

Bilimli, salohiyatli o'qituvchilar hamma joyda hurmat va e'tiborga loyiq. Lekin, afsuski, ular ham ustozlikka noloyiq, «alifni kaltak» deyidigan «pedagog»larni ko'rib, ko'p narsaga ko'z yumishi, bamaylixotir yurishi mumkin.

Xo'sh, maktablardan savodli savodsizlar nega bu darajada ko'p chiqaypti? Bunga asosiy sabablardan biri shuki, o'qituvchi dars o'tayotganda uning fikri-xayoli darsda emas, ko'proq uy-ro'zg'or tashvishlarida bo'ladi. Chunki maosh bo'sh qopni tik turg'azishga yetmaydi. Muallimlarda esa bo'sh qoplar ko'p...

Endi o'zingiz ayting, darsdan chiqib, kirakashlik yoki mol bozorda dalollik qilayotgan o'qituvchilardan nimani kutish mumkin?! Yoki bo'lmasa, olti oylik (pullik) kurslarda o'qib, mutaxassisligini o'zgartirgan muallimlardan-chi?..

Maktabda o'quvchi ayniqsa, o'qituvchi ko'p chalg'iyapti. Ya'ni, ta'lim keraksiz darajada keragidan ortiq isloq qilindi va qilinmoqda; turli dasturlar ishlab chiqildi,

Taassufki, ta'lim maskanlarimizda dars tugamasdan turib, «tanaffusgacha jim o'tirib, keyin chiqinglar» qabilida ish tutib, o'zi telefonda daqiqalab gaplashayotgan o'qituvchi ham, «uydagilarga telefon qilishim kerak» deb boshqa maqsadda gaplashayotgan o'quvchilar ham bisyor.



«Baxshichilik va an'anaviy xonandalik haftaligi»

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan mamlakatimiz bolalar musiqa va san'at maktablarida "Baxshichilik va an'anaviy xonandalik haftaligi" tashkil etildi. Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda baxshichilik rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro festivallar, anjumanlar o'tkazish yaxshi an'ana aylandi. Baxshilar xalq turmushi va madaniyatini, o'zi yashab turgan yurt tarixini puxta bilishi, sozandalik, xonandalik san'atini puxta egallagani bilan e'tiborga molikdir. Ularning mahorati jonli xalq tilining jonli xalq tilining turli shakllaridan, so'z o'yinlari va qochirilmalaridan, xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalana olishlarida yana bir karra namoyon bo'ladi. Zero, tinglovchilarni rom etuvchi ohang topa bilish, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytish baxshichilikning muhim shartidir. Bu esa, o'z navbatida tabiiy iste'dod, kuchli idrok, muntazam ravishda qunt va chidam bilan mashq qilishni talab etadi. Mutaxassislariga ko'ra, ona-yurtga sadoqat, muhabbat, do'stlik, birodarlik, qahramonlikni tarannum etuvchi xilma-xil mazmundagi dostonlarni baxshilar sevib kuylaydilar. Manbalarda Po'lkani shoir yetimlardan ortiq dostonni yoddan bilgani keltiriladi. Baxshilarning o'tkir zehni, yuksak ijro mahorati, ona tilimiz imkoniyatlaridan zargarona foydalanish

salohiyati tahsinga loyiq. Navro'z ayyomi arafasida baxshilar ishtirokidagi dasturlar, aytishuvlar yanada avj oladi. O'zbekiston xalq baxshilari Bola baxshi Abdullayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov, Qora baxshi Umurov, Abduqahhor va Abdumurot Rahimovlar, Shomurod Tog'ayev, Ziyodulla Islomov, Norbek baxshi Abdullayev, Qalandar baxshi Normetov, Qodir baxshi Rahimov betakror ijrolari bilan baxshichilik san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Yurtimizning Qashqadaryo, Qorxondayo, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida baxshichilik san'ati rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, hamda Qoraqalpog'iston dostonchilik maktablari mavjud. Ular bir-biridan ijro usullari va repertuarlari bilan farqlanadi. Madaniyat vazirligi tomonidan mamlakatimiz bolalar musiqa va san'at maktablarida "Baxshichilik va an'anaviy xonandalik haftaligi" doirasida ushbu bebaho san'at yo'nalishlari haqida yosh musiqachilarga yanada batafsilroq ma'lumotlar beriladi. Turli turlar, ochiq darslar, mahorat saboqlari, konsertlar, seminarlar va boshqa tadbirlar o'tkaziladi.

N.USMONOVA,
O'ZA

HEY BOLA, DARSDA TELEFON ISHLATMA!

Bugun o'quvchilarga berilayotgan asosiy tanbeh shu jumla bo'layotgani maktablarda telefon ishlatish tartib-qoidalarini qat'iy lashtirish kerakmi, degan xulosaga olib kelmoqda. GSMA tadqiqoti natijasiga ko'ra, 2023-yilning oktyabr holatiga dunyo bo'ylab taxminan 4,3 milliard inson, ya'ni dunyo aholisining 54 foizi mobil telefonlardan foydalanadi. London Iqtisodiyot maktabi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot esa smartfonlar taqianglangan maktablarda test natijalari ko'rsatkichlari 6 foizga yaxshilanganini ko'rsatgan. Biroq mobil telefonlardan sinfda foydalanishni taqianglash ish bermayotganligi, o'quvchilarning yarmidan ko'pi yashirincha qoida buzayotgan va gadgetlardan hanuz foydalanayotganligi ham hech kimga sir emas.

Shvetsiyada mobil telefonlardan foydalangan 8-12 yoshli bolalarning sog'lig'i kuzatilganda, 21 yoshga kelib, allaqachon voyaga yetgan bu bolalar 18 yoshdan keyin telefonlardan foydalanishni boshlaganlardan farqli o'laroq, miya shishi 5 baravar tez rivojlanadigan fuqarolar toifasiga yaqin bo'lgan.

Ana shularni hisobga olgan holda Jahon sog'liqni saqlash tashliti 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarning uyali telefonlardan foydalanishini taqianglashni tavsiya qilyapti.

Mamlakatimizda ham ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, har tomonlama rivojlangan va barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2012-yil 21-mayda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 139-son qarori qabul qilingan edi. Shu asosda ishlab chiqilgan nizomga ko'ra, maktabga kirib kelishda har bir o'quvchi, xodim va boshqa shaxslar o'z telefoni ovozi to'liq o'chirib qo'yishi («ovozsiz» rejimga o'tkazishi) shartligi belgilangan. Bundan tashqari, belgilangan mezonlarga ko'ra, telefonini bo'yiniga osib olish, ko'krak cho'ntaklarida, shim, yubkalarida cho'ntaklarida va shu kabilarda saqlash, telefonni quvvatlantirish



O'quvchilarga mashg'ulotlar va tadbirlar oraliqida faqat asosli va kechiktirib bo'lmaydigan zarur holatlardagina ota-onasi, yaqin qarindoshlari, maktab rahbarlari yoki xodimlari bilan zudlik bilan bog'lanish maqsadida telefonlardan foydalanishga (qo'ng'iroq qilishga, SMS, MMS, GPRS jo'natishga, Bluetooth, Internet va shu kabilar xizmatidan foydalanishga) ruxsat etiladi. Favqulodda vaziyatlarda esa ta'lim muassasalarida ham telefonlardan foydalanish cheklanmaydi.

Shu o'rinda o'quvchilar telefonlardan foydalanish tartibini buzganda – ogohlantirish, ularning kundalik daftariga yozib, ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) xabardor qilish yoki o'quvchidan telefonni olib qo'yib, bildirishnoma rasmiylashtirishlar qo'llanishi ham ushbu nizomda qayd etilgan.

Bu borada xalqaro tajribaga yana bir bor nazar solsak: Buyuk Britaniya o'quv muassasalarida tartib-intizomni kuchaytirish maqsadida mobil telefonlardan foydalanishni to'liq taqianglash, xususan, o'quvchilar ryuzaklarida tintuv o'tkazishga ruxsat etish masalasi kun tartibiga qo'yilgan. AQSH, Fransiya, Gretsiya, Tojikiston, Ozarbayjon va boshqa bir qator mamlakatlarda ham o'quvchilarga telefonlardan u yoki bu shaklda foydalanish taqianglangan. Qoidaga ko'ra, o'quvchilar maktabga telefon olib

kelishlari mumkin, biroq undan foydalanishlari mumkin emas. Aks holda tanbeh va qattiq intizomiy jazo tayinlanadi.

Xitoy Xalq Respublikasida esa ota-onalarning yozma roziligisiz bola maktabga telefon olib kira olmaydi. Ta'lim olish jarayoniga salbiy ta'siri bois Janubiy Koreya maktablarida ham mobil aloqa vositalaridan foydalanish qat'iy man etilgan. Qozog'iston va Tojikistonning «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, ta'lim maskanlarida mobil vositalardan foydalanish ta'qiqilgan. Janubiy Koreya maktablarida ham bu amaliyot yo'lga qo'yilgan.

Ammo hozircha bizdagi o'quv muassasalari olib borilgan o'rganishlar mobil telefonlardan foydalanish madaniyati nafaqat o'quvchi yoki talabada, balki pedagoqlarda ham yetarli emasligini ko'rsatmoqda. AfSuski, ko'pchilikning Hukumatimizning yuqorida qayd etilgan qaroridan hatto xabari yo'q. Taassufki, ta'lim maskanlarimizda dars tugamasdan turib, «tanaffusgacha jim o'tirib, keyin chiqinglar» qabilida ish tutib, o'zi telefonda daqiqalab gaplashayotgan o'qituvchi ham, «uydagilarga telefon qilishim kerak» deb boshqa maqsadda gaplashayotgan o'quvchilar ham bisyor.

Xo'sh, bunday holda dars samarali kechadimi? O'quvchining darsni o'zlashtirishi qay darajada bo'ladi? Mobil telefonlardan ortiqcha foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini pasaytirishi va bolalarning hissiy barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi, uning orqasidan boshqa kasalliklar rivojlanib borishi haqidagi tadqiqotlar nega ommalashtirilmayotgani haqidagi savollar ham hamon ochiq qolmoqda...

YUNESKOning maktablarda smartfonlarni taqianglash haqidagi chaqiriqlari rivojlangan mamlakatlardagina e'tiborga olinmoqda, xolos. Mutaxassislar esa bu yetarli emasligini aytib bong urishmoqda.

To'g'ri, bizda ham bu masalaga e'tibor kuchli. Lekin ota-onalarning bunga loqaydligi, qo'lni-qo'lga berib samaraga erishishga intilmayotgani, ayniqsa, o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'sir etayotgan muhim omil bo'layotir.

Shahnoza SULTONOVA,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

GSMA TADQIQOTI NATIJASIGA KO'RA, 2023-YILNING OKTYABR HOLATIGA DUNYO BO'YLAB TAXMINAN 4,3 MILLIARD INSON, YA'NI DUNYO AHOILISINING 54 FOIZI MOBIL TELEFONDAN FOYDALANADI.

uchun ta'lim muassasasi elektr tarmoqlariga ulash, telefoni yordamida atrofdagilarga zo'raonlik, shafqatsizlik, pornografiyani targ'ib qiluvchi video va suratlarini namoyish qilish, suratga olish va video tasvirga tushirish, telefon orqali boshqa xizmatlardan (GPRS, Bluetooth, Internet va shu kabilar) foydalanish kabilar qat'iy taqianglangan.

Nigoh

Saida Zunnunova go'zal va dardli she'rlar yozgan shoira edi. Saida Zunnunova teran mantiqli hikoyalar yozgan adiba edi. Saida Zunnunova — vafodor ayol, po'lat irodali inson edi... Ustozim Said Ahmad akening xonadonida ko'p bo'lganman. Saida opaning dasturxonidan tuz ichganman. Bir qancha asarlarim qo'lyozmasini Said Ahmad aka bilan birga Saida opa ham o'qigan. Samimiy, jo'yali maslahatlar bergan... Bir safar Said Ahmad aka bilan Vodilga bordik. Ustoz o'zining «Tasha tegmagan» xushchaqchaq gurungi bilan davrani obod qilib o'tirdi. Ittifoqo bir kishi Saida opaning hayotdan erta ketgani haqida o'kinib gapirib qoldi. Said Ahmad aka indamay o'rnidan turdi-da, sigaretining uchini ezig'ilagan ko'yi nari ketdi. Anchagacha ustozdan darak bo'lmagach, ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. Izlab borsam, soy bo'yidagi kattakon xarsangtosh ustida sigaret chekib o'tirgan ekan. Suvning

shovullashidan kelganimni eshitmadimi, qayrilib qaramadi. Yaqin borib, qarasam, botib ketayotgan quyoshga tikilib o'tiribdi. Ikki ko'zi jiqqa yosh! Qo'rqib ketdim. «Unaqa qilmang, ustoz» deb yelkasiga kaftimni qo'ygan edim, chuqur xo'rsindi. «Bolam, bu dunyoga nuqul azob chekish uchun kelgan ekanman», dedi-da yuzini kafti bilan to'sib oldi... Shu kecha boshiga tushgan savdolarini birma-bir aytib berdi. Umringing eng baxtli onlari ham baxtsizlik bilan qorishib ketganini aytdi. Saida opaga uylangan kuni Toshkentda to'y bo'lgan, Andijonda — aza! O'sha oqshom Saida opaning ukasi to'satdan vafot etib qolgan... Yosh kelin-kuyov bir-birining diydoriga to'ymay turib, 1950-yil bahorda ko'chada ketayotgan yosh yozuvchini ikki so'xtasi sovuq ikki qo'lidan ushlab, mashinaga tiqqanu, «he yo'q — be yo'q» «xalq dushmani» deb o'n bir oy «odinochka»ga o'tqazib qo'ygan. Gunohi nimaligini bilmagan odamning, ayniqsa ko'ngli qog'ozdek oppoq odamning — ijodkorning salkam bir yil qorong'i kamerada bir o'zi o'tirishini tasavvur qiling! Bunisi ham mayli. Yozuvchi Said Ahmad qamalga chiqsa Saida Zunnunovani ham siqvgva oladilar. Yozuvchilarning uyushmasida majlis qilib, «Yo erim xalq dushmani, undan voz kechaman», deb tilxat

yoziq berasan yoki yozuvchilar safidan o'chirilasan» deb shart qo'yadilar. O'sha mash'um yillarda erining «xalq dushmani» ekanini tasdiqlab, gazetaga yoziq chiqqanlar ham, erini qamatib yuborganlar bilan «apoq-chapoq» bo'lib ketgan xotinlar ham bo'lgan... Balki shoirani o'rtaga olib «talagan hamkasblar» Saida Zunnunovadan ham shuni kutgandir. Ammo Saida opa boshqacha yo'l tutgan. — Mayli erimni «xalq dushmani» deyishim mumkin. Ammo mening ham bitta shartim bor. Meni erim bilan yuzlashtiring! Erim o'z og'zi bilan «Ha, men xalq dushmaniman», desa, o'shanda ishonaman! Shoirani haqorat qiladilar. Yozuvchilar uyushmasidan haydaydilar. Asarlarini bosishni taqianglab qo'yadilar... Shunda Saida opa kelinlik bisoti — tilla taqincholarni sotib, mashinka harid qiladi. Qozoq adibi Muxtor Avezovning Davlat nashriyotida chiqayotgan «Abay» romani tarjimasini mashinkadan chiqaradi va mehnati evaziga haq olish uchun nashriyotga boradi. O'sha yillari nashriyotda Kasabov degan mashhur buxgalter ishlagan ekan. Uning laqabi «Qassobov» bo'lgan. Sababi — qalam haqi

olishga kelgan odam borki, «Qassobov»ga «cho'tal» to'lashga majbur bo'lgan. Hatto Oybek, G'afur G'ulom kabi allomalar ham «Qassobov»ga shirikoma berishgan... Shunday qilib, Saida Zunnunova ham «mashinistkalik» qilib topgan pulini olish uchun nashriyotga boradi. O'ziga tegishli haqni olgach «Qassobov»ga «ulush» tashlab, chiqib ketadi. Shunda buxgalter uning orqasidan yugurib chiqadi. Yo'lak boshida unga yetib olib, shunday deydi: — Qizim, kelib-kelib sendan pul olamanmi? Ma, o'zingga ishlat! Sen qizim, xafa bo'lma, Xudo xohlarsa, ering qutulib keladi. Bu kunlar unutilib ketadi! Xo'rliklar ko'raverib, haqoratlar eshitaverib, yuragi tosh qotib ketgan, butun irodasini mushtiga tugib, hech kimning oldida bir tomchi yosh to'kmaslikka qasam ichgan Saida opa, qo'ni-qo'shnilar u yoqda tursin, uncha-muncha qarindoshlar ham «xalq dushmani»ning xotiniidan yuz o'g'irgan bir paytda yetti yot begona odamdan bu gapni eshitib, dod solib yig'lab yuboradi! ... Agar men haykaltarosh bo'lsam, Saida Zunnunovaning boshini silab turgan Kasabov haykalini yaratardim!

O'tkir HOSHIMOV





АЙРИМ ТАРИХЧИЛАР ТОМОНИДАН МОНГОЛ, ДЕБ КЕЛИНГАН ЧИНГИЗХОН ОТА ТОМОНИДАН КИЁТ, ОНА ТОМОНИДАН КҮНҒИРОТ ЭЛИ УҒЛОНИ БЎЛГАН. КИЁТЛАРНИНГ «БҮРИТЕГИН» («БҮРЧИҒАН») ТАРМОГИ ЭЛИ УҒЛОНИ ЯСУКАЙ БАХОДИР УҒЛИГА ТАТАРЛАРНИНГ ХОНИ ТЕМУР ЧИН (ЧИН ТЕМУР) НОМИНИ БЕРГАН.

ТАРИХ КАТЛАРИДА

ЧИНГИЗХОН МЎҒУЛ БЎЛ(МА)ГАН



Қадимги Ўзбекистон зами-нида, жумладан, кўхна Хоразм-да Киёт номи билан боғлиқ топонимларнинг кўпчилигидан бу уруғнинг юрти айнан шу макон бўлганлиги ойдинлашди. Буюк бобомиз Беруний Киёт кентида туғилган (4 сентябрь 973 йил), улуг ўзбек шоири Оғахий эса 1809 йили Хива яқинидаги Киёт қишлоғида туғилиб, 1874 йили вафот этган.

Юртимизда, жумладан, Хо-разм, Сурхондарё, Самарканд ва бошқа ҳудудларда кўнғирот эли номи билан аталган топонимик жойлар кўп! Зотан, бу эл вакиллари шу жойларда яшаган. Ўзбек халқ эпоси қаҳрамони Алпомиш ҳам кўнғирот эли вакили. Айрим тарихчилар томонидан монгол, деб келинган Чингизхон ота томонидан киёт, она томонидан кўнғирот эли ўғлони бўлган. Киётларнинг «Бүритегин» («Бүрчиған») тармоғи эли ўғлони Ясукай Баходир ўғлига татарларнинг хони Темур чин (Чин Темур) номини берган. Хозирда Чингизхонга такалаётган «Темучин» деган ном Темур чиннинг бузилган шакли бўлиб, бу ном «р» товуши талаффуз қилинмайдиган хитой тилидан ўзлашган.

Чингизхоннинг онаси Ойлуи эса кўнғирот уруғининг олхонут эли кизи бўлган! Чингизхоннинг бош хотини – Бүритой ҳам кўнғирот кизи. Кўнғиротлардан киз олиш одатини кейинчалик Амир Темур авлодлари ҳам давом эттиришган.

Бу ҳақда Алишер Навоий ушбу мисраларни ҳам битган:

Менга дўли бирла ҳинду, анга кўнғироту киёт.

Эй Навоий, менга бас ул санаму дўливан.

Рашидиддин Фазлуддоҳ, хитойлик тарихчи Чжао, Абулғози Баходирхон фикрларини ҳам умумлаштирсак, куйидаги мазмун пайдо бўлади: «Темур чин узун бўйли, салобатли, манглайи кент, сарик соч-соқоли узун, кўзлари кўкимтир-зангори» бўлган.

Чингизхон ўз давлатида хитой ёки тибет ёзувини эмас, балки ҳамма туркий қабилалар учун тушунарли бўлган уйғур ёзувини татбиқ қилган. У халха-монголларнинг она бугунча (буддизм ва шаманизмга ҳам) эмас, балки туркийларнинг Кўк Тангрисига сиғинган. Чингизхоннинг аجدдалари, авлодлари ва кўмондонларининг номлари

ҳам туркийча бўлган. Чингизхон кўшини кўмондонлари: Жебей меркит, Субудой киёт, Муқоли жалойир, Кетбуға найман-боғонали (боғонали – Паст Даргом туманида шундай жой номи бор), Нўён Тоғўчар кўнғирот бўлган. Бу уруғларнинг барчаси ўзбекнинг 92 уруғи таркибига кириди.

Шу ўринда қизик савол туғилади: Монгол исмлари асли қандай бўлади? Монголларнинг таникли ёзувчилари – Дамдинсүрен Сендийн, Инжинан Ванчинбали, Лодойдамба Чадраавалин, Натсагдорж Дашдоржийн, Ринчен Бамбын, Сенгее Дашзевегийн, Тудев Лондонийн...

Чингизхоннинг ўзи ва авлодлари туркча хон (хокон, когон), деб аталган. Чингизхонга Алл Эр Тунга (Афросиёб) авлодлари – Қорахонийлар бу унвон билан

во селоси, Сарой Берка ўрнида Волгоградга қарашли Сарово селоси ташкил топган.

Сарой Чик шаҳри Урол дарёсининг ўнг томонида Атирау ва Уральск шаҳарлари орасида бўлган.

Хоразмнинг кўплаб хонлари ва сарой шоирлари Абулғози Баходирхон, Оғахий, Мунис Хоразмий қабилар ўзларини Чингизхон уруғидан, деб билишган.

Чингизхон барпо этган империядаги инсон ресурслари: туркий тилли халқлар (ўзбеклар, қозок, уйғур, татар, бошқирд, туркман, турк, кашкай, озарбайжон, нўғай, кўкўғуз (гагаўғуз), кумик, нўғай, олтойликлар, чуваш, ёкут, крим татарлари, турва, кирғиз, қорақалпоқ, тувалик, шорс, булғор, қорачой, ҳакас, қораим ва бошқалар) 150 млн. атрофида.

Монгол тиллилар (халха,



ЧИНГИЗХОН ЎЗ ДАВЛАТИДА ХИТОЙ ЁКИ ТИБЕТ ЁЗУВИНИ ЭМАС, БАЛКИ ҲАММА ТУРКИЙ ҚАБИЛАЛАР УЧУН ТУШУНАРЛИ БЎЛГАН УЙҒУР ЁЗУВИНИ ТАТБИҚ ҚИЛГАН. У ХАЛХА-МОНГОЛЛАРНИНГ ОНА БУҒУСИГА (БУДДИЗМ ВА ШАМАНИЗМГА ҲАМ) ЭМАС, БАЛКИ ТУРКИЙЛАРНИНГ КЎК ТАНГРИСИГА СИҒИНГАН.

аталиш ҳуқуқига эга бўлишган! Хозирги халха-монголларнинг аждодлари эса хон унвоига эга бўлишмаган. Уларнинг подшохи хунтайжи, деб аталган!

1206 йили Темурчин – Чингизхон, яъни Чин Уғузхон номи-ни олиб, хон бўлиб кўтарилган буюк курултойда кўнғирот, найман, жалойир, керейтлар катнашган. Бирок бу курултойда хозирги монгол халқини ҳосил қиладиган ойрот, халха, чорас, дурбет, хохиммут кунтайжи (бошлик)лари иштирок этмаган. Хитой манбаларига асослансак, монгол улусини ҳосил қиладиган кўллаб қабилалар Чингизхон харбий юришларида катнашмаган.

XIV-XVI асрларда Олтин ўрданинг барча бошқентлари (пойтахтлари) монголча эмас, туркча номланган: Сарой Боту (Эски Сарой) 1254-1480 йиллар, Сарой Берка (Янги Сарой) 1260-1395 йиллар, Сарой Чик (Кичик Сарой). Олтин ўрданинг йирик кентлари Хозирда йўқ бўлиб кетган Сарой Боту ўрнида Астраханга қарашли Селитрено-

бурят, калмоқлар) – 15 млн. атрофида.

Нисбат 1:10. Буюк империя қайси инсон ресурсларига суянганлигини шундан ҳам англаш мумкинми?

Чингизхоннинг замондоши бўлган Рашидиддин барча туркий элларни санаб ўтиб, «Улар ўзларини буюқлигига ургу бериб, ўзларини мўғул (мангу эл – Э.М.) деб аташди, гарчи тарихан улар турк эдилар», дейди.

«Тўрт улус тарихи» ва «Шажара ул-атроқ» («Турклар шажараси») асарларида Чингизхон айтган ману бо йир (кўшиқ)нинг тили қайси тил?

«Денгиз боштин бўлгонса, тиңдирур ўғлум Жўлчидур.

Терак тубдан йиқилса, тургузар ўғлим Жўлчидур».

Академик Борис Владимиров 1929 йили «Сравнительная грамматика монгольского письменного языка и халхаского наречия» асарида илмий асосланган фактларга таяниб, Чингизхон тилини турк тили, дейди.

Тарихчи Ибн ал-Асир келтирган маълумотларга кўра:

«Самарканд қалъасининг енгилган аскарлари голибларга шундай дейишган экан: Биз Чингизхон уруғиданмиз!»

Мирзо Улуғбекнинг келтиришича, кичиклар олонийлар (аланлар) билан бирлашиб, Чингизхон кўшинига қарши жангга чиққанда чингизийлар кичикларга шу гапларни айтиб, жангдан қайтармоқчи бўлишди: «Биз васизнинг келиб чиқишимиз бир, шубҳасиз сизлар бизнинг қариндошларимизсизлар, лекин хозирда бизга ёмонлики раво кўрувчисизлар. Негаки, сизлар ўз яқинларингизни парширон қилмоқчисизлар. Ўз душманларингизга эса мадад қилмоқчисизлар. Шундай экан, биз жангу жадал қилсак, сизлар душманга ёрдам қилмасликларингиз керак!»

Махшур сайёх Марко Поло (1254-1324) ўша даврларда Хитойни бошқарган Хубилай хон ҳақида гапириб, унинг гаплари ва чет элликлар билан суҳбатни туркийча бўлгани ва шу тилда давлат ёрликларини ёзганини келтириди.

Хулағу хоннинг аскарини араб давлатларида «Турон кўшини» деб аташган.

Гилом де Рубрук (1220-1293) Чингизийлар саройидаги таржимонлар монголчадан эмас, туркчадан таржима қилишганини келтиради.

Нима учун хон Куюкхоннинг (Гуюк) Рим Папаси Иннокентий IV ёзган ёрлиғи (1246 й.) эски ўзбек тилида битилган? «Улуғ улуснинг... хон ёрлиғимиз!»

Чингизхон билан Хоразмшоҳ ўртасидаги урушнинг сабабчиси қим?

Кўплаб тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, Чингизхон ҳудуд жиҳатидан хозирги Ўзбекистон, Туркменистон, Афғонистон ва Форонни эгаллаган улкан Хоразм салтанати билан бўладиган аёвсиз, улкан урушга бошида қарши турди. Бу ҳақда Лев Гумилевнинг ушбу эътирофи ҳам бор:

«... Мўғуллар уйларига қайтишди: Хоразм билан урушиш истаги уларда йўқ эди, ҳатто бунинг акси, Чингизхон бор кучи ила Хоразмшоҳ билан муносабатларни йўлга қўйишга интилар эди. Ахир, Урта Осиё орқали Буюк Ипак йўли ўтган эди. Йўл ўтган ҳудуд эгалари савдогарлар тўлаган бож ҳисобига бойир эдилар. Савдогарлар ҳар қандай миқдордаги божни тўлашга рози эдилар, чунки улар барча харажатларни истеъмолчилар зиммасига юклар эдилар, ўзлари эса амалда ҳеч нарса йўқотмас эдилар. Барча устунликларни сақлаб қолишни истаган мўғуллар қарвон йўли билан боғлиқ ўз ҳудудларида хотиржамлик ва тинчликни ушлаб туришдан манфаатдор эдилар».

Келтирилишича, ҳатто ўша давр мусулмонларининг бош

халифаси Ан-Носирий Чингизхонни Хоразмга, мусулмонларга қарши юришга даъват қилганда ҳам Чингизхон уни инкор қилди. Чингизхоннинг бойлиги, айниқса, Хитой юришидан кейин жуда етарли бўлганди. Олтин, кумуш, ипак, чиннилари кўп эди. Бирок унда Туркистонда ишлаб чиқариладиган ва Осиёнинг бошқа жойларида топилмас дунёдаги энг зўр пўлат, пахта ва шишага эҳтиёж пайдо бўлди. Бу махсудотларни айирбошлаш учун у Хоразмга савдо қарвонини юборди.

Бу ҳақда Мирзо Улуғбек шундай дейди: «Чингизхон савдогарлари... Ўтрор диёрига етганларида, Султон Муҳаммад Хоразмшоҳ томонидан қўйилган Ўтрор ҳокими Инолчук хузурда жанжалга дуч келдилар. У Султон Муҳаммад Хоразмшоҳнинг онаси Туркон Хотунга қариндош бўлганидан Ғойирхон лақабини олган эди. Савдогарлар жамоасидан бири хинди бўлиб, илгари жуда махшур экан. Уни танир эди. Илгариги одатича ул хинди уни Инолчук деб атади. Бу маъни ул соҳибни давлат хотирига оғир ботибди. Дарғазаб бўлиб, бозоргонлар моли тамаъида тожирлар жонига қасд қилди. Ул беғунохларни ҳибсга олди... Ўтрорда савдогарларни тутиб қолди. Бу ишни дев кўрса ҳам лол қоларди». Хуллас, Ўтрор ҳокими 1218 йили Чингизхон тарафидан юборилган қимматбаҳо совғалар ортилган савдо қарвонини талатиб, савдогарларни қатл қилдиради.

Бу хиёнатнинг ўзи ҳам Чингизхонга Хоразмшоҳга қарши уруш очиб унун етарли эди. Узокни ўйлаган хон босиқлик билан дипломатия қонунига кўра Хоразмшоҳдан қотилни жазолашни сўрайди. Бирок халқнинг тақдирини ўзининг обрўини устун қўйган қалтабин ва калондимоғ Хоразмшоҳ навбатдаги фитна ва номардликларни бошлайди.

Шундан кейин ори топталган Чингизхон урушни бошламас, яқинлари, «Мангу эл» (мўғул) орасида шарманда ва беобрў бўлиши аниқ эди!

Калтафаҳм султоннинг инжиқликлари Чингизхонни ғазабга келтирди. У Бурхон тоғига кўтарилиб уч кечаю уч кундуз сувсиз ва очнаҳор йиғлаб, Кўкка илтижолар қилди. Уруш очиб унун илоҳий ишорани аниқлаган ва кўз ёшлари оқиб афтода холда кўшининг «Тангри» деган қичқириклари остида тоғдан тушиб келган Чингизхон Султон Муҳаммад Хоразмшоҳ хузурига хат юборди: «Эккан уруғлар униб чиқди. Ғазаб тигини ғилофдан олгин, зеро сен жабру зулм тухминни эқдинг. Олганинг юзи қоралик, ўткир қилич захми. Сени ўз юришимдан оғоҳ қилмоқчиман. Сен ҳам жанг асбобини ростлагин. Шуни билгинки, мен етиб борурман, кейин гофил қолиман, деб айтмагин!» («Тўрт улус тарихи»дан).

Шу тарихи Хоразм салтанатига қарши улкан юриш бошланди... Отасининг қочқилигини билган Жалолиддин Мангуберди (Менкбурни) деди: «Агар Султон Ироқка кетадиган бўлса, лашкар-

ларини менга қолдирсин. Мен эса Жайхун дарёси бўйида тургум. Дарёнинг у томонини (Чингизийлар) эгаллайдиган бўлса, бу томонга ўтказмағайман, монельлик қилурмен. Энг тўғри йўл шу!» («Тўрт улус тарихи»дан). Султон Хоразмшоҳ ўғли Жалолиддиннинг сўзини илтифот қилмади. Ёш йигитнинг кексалардек сўзларини уқувсиз Султон эшитмади.

Туркистоннинг буюк фарзандлари Жалолиддин Мангуберди ва Темур Малик каби ватанпарварлар масъулиятсиз ва кўрқок султон қасофатига қолиб, аслида енгилш учун аталган урушга киришишга мажбур бўлишди...

«Соҳибқирони аъзам Чингизхон муаззам томоша учун Бухоро ичкарасига кирди. Масжидга етганда сўради: «Султоннинг саройи шулни?» Жавоб бердилар: «Сўраманг». «Кимники ахир?» Дедилар: «Бу осмону замин Холиқининг уйдирди. У отидан тушди ва иккинчи минбарнинг поёсига чикди ва ўлтирди. Шундай деди: «Ой Тангрининг ғазабига учраган қавм, у мени сизларнинг бошингизга юборди. Сизлар қибрилиб сипоҳ эдингиз ва Тангри ғазабини ўзларингиз қачириб олднгиз» («Тўрт улус тарихи»дан).

Қара денгиздан Тинч океанига қадар бўлган Чингизхон тиклаган империяда (Русия, Хитой, Форс, Хинд, Кавказ, Шарқий Европа ва бошқа ҳудудларда) монгол тили эмас, турк тили ҳукмрон эди.

Чингизхон авлоди Ўзбекхон ўзбек элининг аждоди!

Ўзбекхон саройида давлат тили ўзбек тили эди. Шоир Кутб Хоразмий Олтин ўрда хони Муҳаммад Ўзбекхоннинг (1312-40 йиллар) Ок ўрдадаги номи, ўғли Тинибек саройида яшаб ижод қилган. Кутб Тинибекка бағишлаб «Хусрав ва Ширин» достонини ёзган. Бу достон ўша ер тилида – соф ўзбек тилида ёзилган!

Эътиборингизга шу асардан парча келтирамиз:

Қозонтек қайнаб уш савдо

нишурдум,

Низомий болидин ҳалво

нишурдум...

Ошиқ бўлмаса ушбу

эти қат эр,

Недин мунча халойиқ

захмини ер?

Абдурауф Фитрат бундай дейди:

«Эй улуг Турон, арслонлар ўлкаси! Сенга не бўлди? Эй, Чингизларнинг, Темурларнинг, Ўғузларнинг, Отиллаларнинг шонли бешиклари! Қани у чикдигинг юксак ўрилар?» Ёки:

Онам! Сени қутқармоқ учун

жонми керакдир?

Номусми, виждон била

имонми керакдир?

Темур ила Чингиз қони тошди

томурида –

Айтгил, Сени қутқармоқ учун

қонми керакдир?

Эътиборингизга ҳавола қилинган ушбу мақолада келтирилган барча фактлар илмий асослангани боис ҳеч иккиланмай Чингизхонни туркий, яъни ўзбек дейишимизга асос бор.

**Эркин МУСУРМОНОВ,
СамДУ доценти**

✓ Кутинг!

ҚИШ КИШИ КИШИ КИШИ ҚАЛОВАТМИ ЁКИ ҚАЛОКАТ?



–Э-э, дугонажон, олий маълумотли бўлиб, уйланмаган йигит билан турмуш қурганларнинг биттаси сенмисан? Қайнона, қайнота, қайинбўйинилар хизматидан ортмайсан. Овсинларнинг «деди-деди»ларини-ку гапирмасам ҳам бўлади. Шунда ҳам ҳеч ким миннатдор бўлмайди... Ким ёмон, ҳаминча келин ёмон...

Келгуси сонларда



«Куритган» яна бир чинор

«... Мен Олимжонни илк бор Берлинда – СССРнинг Германиядаги Мухтор вакили хонасида кўрганман. У билан Берлинда тайёрлов курсида танишганман. Олимжон ўта маданиятли, билимдон ва тиришқоқлиги билан бошқа талабалардан ажралиб турарди. Шундан кейин бошқа шаҳарга ўқишга кетди ва биз бошқа учрашмадик. У ниҳоятда ватанпарвар инсон эди, унинг аксилсовет тарғибот олиб борганига ҳеч қачон ишонмайман».

Бу жумлалар Германияда тахсил олган Марям Султонмуродованинг Олимжон Қодирийнинг ўлимидан 18 йил ўтиб берган кўрсатмасидан олинди.

Олимжон Қодирий 1920 йилларда Германияга тахсил олиш учун йўлланган туркистонлик 76 талабанинг бири эди. Қодирий Олим Садриддинович 1898 йил 9 сентябрда Хива хонлигига қарашли Гурлан туманида туғилган. Бошланғич таълимни шу ердаги янги усул мактабларида чиқаради. «Нўғай мактаблари» деб номланган мазкур мактаблар рус тилини ўрганиш учун қулай, ўқувчилари асосан хур фикрли, тараккийпарвар, жалилчилик ғояларига мойил бўлиб таълим-тарбия олишарди. Олимжон 14 ёшда мактабни тамомлаб, Гурландга «Зингер» компаниясига фаррош бўлиб ишга кириди. Кўп ўтмай тиришқоқлик билан мустақил равишда немис тилини ўрганиб, қорхонадаги етакчи мутахассислардан бирига айланади.

Маълумки, 1916 йили Хива хонлигининг бир неча бекликларини қамраган халқ кўзғолонлари бошланади. Олимжон Қодирий ҳам «Ёш хивалиқлар» вакили сифатида бу кўзғолонларда иштирок этади. Кўзғолонни бостиришга қаратилган ҳаракатлар натижасида бутун хонлик худудиди тараққийпарварларга қарши таъкиб қўйилди. Оқибатда Олимжон Гурланддан чиқиб кетишга мажбур бўлади. Шундан сўнг, 1918-19 йилларда Петроалександровскадаги 3-харбий гарнизонга оддий аскар бўлиб хизмат қилади. Олимжон рус тилини мукамал билгани учун кўп ўтмай гарнизон харбий сундининг вакили этиб сайланади.

1922 йилга келиб Бухоро ҳукумати томонидан танланган 55 кишилик биринчи гуруҳ Германияга жўнатилади. Шундан сўнг,

20 кишидан иборат иккинчи гуруҳ Тошкентдан йўлга чиқади. Учинчи гуруҳ эса Москвада ўқиётган талабалар: Олимжон Қодирий, Шамсулбанот Ашрафова, Гулсум Музаффарова, Гани Усмоновлардан иборат бўлиб, улар Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) Маданий ишлар ваколатхонаси раҳбари Олимжон Идрисий бошчилигида йўлга чиқишади. Бу гуруҳ 1922 йилнинг октябрь ойи сўнггида Германиянинг Берлин шаҳрига етиб боради. Идрисий уларнинг ёши ва билим даражаси ва иктидорларига қараб, Германиядаги ўқув муассасалари, шунингдек, тезкор тил ўргатиш курсларига жойлаштирилади ва ортага қайтади. Туркистондан Германияга таълим олиш учун борган ёшлар орасида нисбатан кам сонда бўлиб, Олимжон Қодирий Берлинда тўрт ойлик тайёрлов курсидан сўнг, кишлоқ хўжалиги соҳасида тахсил олишга қарор қилади.

Кириш имтиҳонларини муваффақиятли топширигач, 1923-27 йилларда Германиянинг Виценхаузен (Witzenhausen) шаҳридаги Кишлоқ хўжалиги академиясида таълим олади. 1926 йили у амалиётни ўша вақтдаги Чехословакиянинг Братислава шаҳри яқинида ўтаб, олий маълумотли агроном дипломини олади.

Европада олий маълумот олган ўзбек агрономи Олимжон Қодирий 1927 йили Ўзбекистонга қайтиб келади. Бирок у ватанга қайтгач, Германияда тахсил олган талабалар қатори «ишончсизлар» рўйхатидан жой олганини билиб қолади. Аввалига унинг Хоразм худудига қиришга қаршилиқ кўрсатилиб, иш берилмайди. Тинимсиз қузатув, турли сўрок ва саволларга тортилади. Фақат 1927 йилнинг охирида у Фарғона водийсига келиб ишга жойлашади. Дастлаб, кишлоқ

хўжалиги банкида масъул, кейинчалик Богдод туманида амалиётчи агроном, кейинроқ Педагогика институтида фаолият олиб боради. Бирок яна таъкибга учраб, Фарғонани тарк этади. 1934 йили Самарқандга кўчиб келиб, Куйбишев номи Самарқанд кишлоқ хўжалик институтининг «Тупрокшунослик ва умумий ер иши» кафедрасига ишга кирилади. Бу ерда ҳам илми, маҳорати, меҳнатсеварлиги билан илмий жамоа хурматини қозониб, кафедра доценти унвонига сазовор бўлади.

Самарқанд шаҳрида кўним топган Олимжон Қодирий анчадан бунён бошлаб кўйган илмий тадқиқотларини давом эттириш мақсадида аспирантурага ўқишга кириди ҳамда турмуш ўртоғи - Самарқанд халқ хўжалиги институтининг доценти Асия Кримова ҳамда фарзандлари Қахрамон ва Гулнорлар билан тинч ва осуда яшай бошлади.

Афсуски, 1937 йилга келиб, «Катта қирғин» номини олган даҳшатли ўлим ўпкони бошқа маърифатпарвар зиёлилар қатори эндигина хотиржам, севган касби билан шуғулланаётган ўзбек агрономи Олимжон Қодирийга ҳам соя сола бошлади...

Осойишта ҳаёт узокка чўзилмай Олимжон Қодирий «Германияда таълим олган ва «Озод Туркистон» аксилкинобий жосуслик ташкилоти аъзоси» дея, ЎзССР Жиноят Кодексининг 62-(аксилсовет тарғибот) ва 67-(аксилкинобий ташкилотга аъзолик) моддалари билан айбланади. Энг кизиги, адолатсиз тузумнинг бошқа қурбонлари каби уни қамокка олиш учун ордер 1937 йил 7 сентябрда, яъни айблов қарори чиқишдан бир кун олдин берилди. «Катта қирғин» анъанасига кўра, 1937 йил 8 сентябрда унинг хонадони – Самарқанддаги Трактор кўчасининг 6-корпус, 16-уйида тинтув ўтказилади. Тинтувда унга тегишли паспорт, партбилет, хатлар, немис тилидаги 56 та китоб, оилавий ва шахсий суратлари ва ҳатто оддий хўжалик ашёлари ҳамда 2500 сўмлик шахсий омонат дафтраси мусодара қилинади. Тинтувнинг эртаси куни Самарқанд шаҳрида ўтказилган дастлабки сўроқда терговчилар Олимжон Қодирийнинг Германияга бориши тарихи билан қизиқиб, унинг Олимжон

Идрисий, Заки Валидий, Садри Максудий ва Муетафо Чўқайлар билан алоқаси бор йўқлигига эътибор қаратадилар.

Тошкентда ўтказилган навбатдаги сўроқда эса унинг шахсий ҳаёти тафтиш этилади. 29 сентябрда чиқарилган қарорда Олимжон Қодирий «... 1922-27 йиллар аксилкинобий «Озод Туркистон» ташкилоти аъзоси; 1927 йил СССРга жосуслик мақсадида келган; Немис разведкаси фойдасига иш олиб борган» деган айбловлар қўйилади.

1937 йил 20 октябрда ўтган сўнгги сўроқда эса уни умуман гувоҳи бўлмаган воқеалар ёзилган қозғоларга имзо чекишга мажбур қилинади. Катта эҳтимол билан унга бу қозғоларни ўқиб кўриш имкони ҳам берилмаган. Таъкидланишича, қозғоларда кайф этилган ва маркази Берлинда экани айтилган «Озод Туркистон» номи ташкилот бўлганини собиқ талабалар фақат қамокка олинганларидан сўнггина эшитишган. Бундан ташқари, Идрисийнинг турк полициясида ишлагани, немис жосуси сифатида Россияга бергани ҳақидаги савгаларини ҳам терговчилар «ўйлаб топишган» эди. Шундай қилиб, Олимжон Қодирий имзо чеккан қозғоларда у ҳатто номини ҳам эшитмаган ташкилот аъзолари ҳақида терговчиғагина «маълум» бўлган барча рост ва ёлғонлар акс эттирилади. Ажабланарлиси, 1927 йилнинг январь ойида СССРга қайтиш олдида Идрисий Олимжонга гўёки шундай махфий топширик берган: ҳозирча ватанларингда пахта ва галладан юқори ҳосил етиштиришда зарарқундаллик ишларни олиб бораверинглр,

кейинроқ Берлинга махфий маълумотларни етказиб турасанглр». Советча тергов унинг гўёки хавфли жиноятчи эканини тўла «исботлайди» ва тергов якулланади. 1938 йил 2 октябрь куни Олимжон Қодирий билан бирга Германияда тахсил олган собиқ талаба Темур Қазбеков ўртасидаги юзлаштиришда айблов баённомасида О.Қодирийга нисбатан қўлланилган ва исботини топмаган барча айбловлар қайтарилади. Унинг собиқ талаба Солих Мухаммад билан бир марталик тасодикий учрашуви эса жосуслик мақсадида ва гаразли алоқа ўрнатиш, дея баҳолалиб, ЎзССР Жиноят Кодексининг 57-(Ватанга хиёнат, харбий ва давлат сирларини сотиш, шпийонаж), 58-(қуролли кўзғолонга ҳаракат), 64-(Совет давлатига қарши теракт) ва 67-(аксилкинобий ташкилотга аъзолик) моддаларида кўзда тутилган жиноятларни содир этганига акс эттирилади.

Афсуски, Олимжон Қодирий ўзига қўйилган айбловларни хар қанча инкор этиб, тухмаг эканлигини таъкидламасин, 1938 йил 9 октябрь соат 11:15дан 11:35 гача давом этган маълум «Учлик» (НКВД тройка) суди уни отувга ҳукм этади. Ҳукм ўша кунлик ижро этилади...

Фақат орадан узок йиллар ўтиб – 1956 йилнинг 18 апрелида Олимжон Қодирийнинг турмуш ўртоғи Асия Кримова СССР Бош Прокурори Роман Руденко номига ариза ёзади. Унда эрининг 1937 йил 8 сентябрда қамокка олингани, 1939 йилнинг декабрида Меҳнат тузатиш лагерига юборилгани ҳақида хабар берилгани, аммо қаерга ва қанча муддатга ҳукм этилгани айтилмаганини баён қилади. Шунингдек, ҳамон эрининг тақдири ҳақида ҳеч бир маълумот йўқлигини айтиб, қайта тергов ўтказилишини сўрайди. Тошкентда яшаётган ўғли Қахрамон Қодирий ҳам 1956 йилда ТуркВО (Туркестанский военный округ) харбий прокурори номига ариза йўллаб, отаси ҳақида маълумот беришларини сўрайди.

Ушбу икки аризага биноан Олимжон Қодирий иши бўйича қайта сўроқ бошланади. Ўша вақтда тирик бўлган ва уни яқши билган кишилар бирин-кетин гувоҳликка чақирилади.

Даставвал сўроқка Германияда таълим олган талабалардан омон қолган ягона вакила Марям Султонмуродова чақирилади ва ундан юқорида келтирилган кўрсатма олинади.

1956 йилнинг 15 ноябрида бўлиб ўтган қайта тергов жараёнида эса Олимжон Қодирийнинг яна бир қасбдоши – Самарқанд кишлоқ

хўжалик институтининг Ботаника кафедраси раҳбари Саидов Жўра Камолович қуйидагиларни айтади: «Олимжон Қодирий билан бир кафедрада ишлаганимиз, аммо мен у киши билан кўп вақт алоқада бўлмаганман. Билганим, у киши ниҳоятда билимли инсон эди. Ўша вақтларда институтда дарсликлар етишмасди. Шунинг учун, у бу камчилиكنи тугатиш борасида, айниқса, ўзбек тилидаги дарсликларни тайёрлашда жуда катта ишларни амалга оширган. Олимжон Қодирийни 1936 йилдан сўнг таниган бўлсам-да, мен унинг ҳеч бир нотўғри фаолиятини кўрган ҳам, эшитган ҳам эмасман».

Қайта терговлар натижасида Собиқ СССР Олий Суди харбий коллегиясининг 1957 йил 2 августдаги қарори билан «Учликнинг 1938 йил 9 октябрдаги қарори бекор қилиниб, Олимжон Қодирий оқланади. Ҳатто, 1937 йилги тинтув вақтида тортиб олинган 56 та китоб учун (хар бири 8 сўмдан) 476 сўм, 5 та сурат учун 28 сўм ва омонат дафтрасидаги пул фонзи билан 3000 сўмга ҳисобланиб, Қахрамон Қодирийнинг манзилга юборилиди.

Балки бу билан оила аъзоларининг кўнгли таскин топандир. Балки, совет тузуми шу йўл билан адолатни тиклагандир, аммо Олимжон Қодирийдек зиёли инсоннинг ноҳақ йўқ қилиниши билан унинг оиласи ва ватанига етказилган маънавий зарарни ҳеч бир товон пули билан ўлчаб бўлмасди.

Келини Лола Қодирий ўз хотираларида шундай ёзади: «Қайнонам Асия Кримова қайнотам Олимжон Қодирийни жуда кўп эслардилар. У киши ниҳоятда билимдон, ғайратли ва маданиятли инсон бўлган эканлар. У кишининг онаси оддий ўзбек аёли бўлган, отаси Садриддин Қодир ўғли Гурланддаги обрўли оила фарзанди, харбий бўлган экан. У киши маърифатпарвар инсон бўлган ва ўғли Олимжоннинг замонавий таълим олишига, рус ва немис тилларини ўрганишига ўзи раҳбарлик қилган экан».

Ўқиб, гувоҳи бўлганингиздек, «Катта қирғин» қўланкаси соясида яна бир маърифатпарварнинг ҳаётига ҳам, илмий фаолиятига ҳам кўр-қўрона, худбинлик билан нукта қўйилган. Бу каби ҳаракатлар нафақат, миллат зиёлиларини «қуритиш», балки миллатимизнинг маънавий-маърифий салоҳияти, миллий калитратлари илдизияга болта уриш бўлиганини эса тарих қайта ва қайта ҳикоя қилмоқда.

Баҳром ИРЗАЕВ, тарихчи олим

✓ Жараён


ТОПОНИМИК НОМЛАР ДАВЛАТ РЎЙХАТИГА КИРИТИЛМОҚДА

Албатта, хар бир инсоннинг исми, гўзал ва маъноли бўлгани каби жойларнинг, маҳаллаларнинг, кўча ва хиёбонларнинг аталлиши ҳам тарихий, миллий, чиройли ва мазмунали бўлиши муҳим аҳамиятга эга. Кадастр агентлиги ва Давлат кадастрлари палатаси фаолиятининг аҳоли, тadbirkorлар учун зарур йўналишларидан бири бу топонимик номлаштириш. У лотинча "топос" – жой, "онома" – исм, ном сўзларидан олинган бўлиб, жуғрофий номларнинг пайдо бўлиши, ривожланиши, ўзгариши, тўғри ёзилишини ўрганади. Мазкур йўналишда Наманган вилоятида ҳам бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 20 январдаги «Мамлакатда давлат тилида иш юритишни самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига кўра, маҳаллий ҳокимларнинг маънавий-маърифий ишлар самаралорининг ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонуни ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчилари билан Давлат кадастрлари палатаси вилоят бонкармаси топонимика хизмати ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик

натижасида географик объектлар номлари давлат реестрида жамланган 36 279 номнинг 10 975 таси давлат реестрига киритилди.

– Ҳозирга қадар вилоятдаги географик объектларга ном бериш ва уларни қайта номлаш тўғрисидаги таклифларни давлат экспертизасидан ўтказиш бўйича 11 067 та ном Кадастр агентлигининг эксперт комиссиясига тақдим этилди. Шундан 9917 географик объект номига ижобий ҳулоса берилди. 1150 ном қайта кўриб чиқилиш учун ҳудудий комиссияларга қайтарилди, – дейди Давлат кадастрлари палатаси Наманган вилояти бонкармаси масъул ходими Жасурбек Юсуфжонов. – Бундан ташқари, Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашларининг тегишли қарорлари билан тасдиқланган 7011 ном ўрганиб чиқилди. Қонуничиликка мос бўлган 9779 ном белгиланган тартибда Географик объектлар номларининг давлат реестри базасига киритилди.



Айни пайтда давлат реестрига киритилмаган 7833 та кўча номининг 3858 таси Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларининг тегишли қарори билан тасдиқлаш жараёнида, 1975 таси бўйича ном бериш, экспертизадан ўтказиш учун тегишли ҳужжатлар тўпланмоқда. Кадастр агентлиги ва Давлат кадастрлари палатаси вилоят бонкармаси ҳамда унинг ҳудудий бўлиmlари томонидан мазкур йўналишдаги ишлар жадал давом этмоқда.

Оқилхон ДАДАБОВЕВ, ўЗА

✓ E'lon


«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Jamoatchilik bilan aloqalar va OAVlari bilan ishlash bo'limi faoliyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy tarmoqlarga milliy «podkast»lar tayyorlash uchun quyidagi moddiy texnikalarni sotib olishga

TENDER E'OLON QILADI

- Mikrofon: Rodepic 4 ta, Stoyka 4 ta;
- Miksherniy pulit: 1 ta;
- 2 ta Softbox chiroq;
- 2 ta shtativ;
- 1 ta kompyuter va monitor (MSI - 27" Modern MD271UL 4K Monitor, IPS, 4mc, 60Hz, UHD (3840x2160) i9 12-avlod (M2SSD nvme 500gb, Videokarta: Gigabyte - 8GB, GeForce RTX4060Ti, DDR: Kingston DDR5 64GB 5200Mhz, HDD 4TB - 2 dona, Klaviatura, mishka);
- Quloqchin HyperX Cloud Alpha S HX-HSCAS-BK 4 dona;
- EXT HDD 4 TB;
- Dji osmo pocket 3;
- Godox rgb 60.

Murojaat uchun telefon:

+99871 239 45 77



Шавкат
Раҳмон

ТУРКИЙЛАР

Қилчин ташлади беклар ниҳоят,
босилди тулпорлар,
тиғлар сурони,
урҳога ўрганган тилларда оят,
туркийлар таниди комил Худони.

Қилчлар занглади...
фалокат хушёр,
туркийлар қувватин берди ерларга.
Ҳийлазар дўстлардай яқинлашди ёв
комиллик қидирган жасур эрларга.

Илвасин йигитлар,
бобур йигитлар,
саждага бош қўйди ёвга терс қараб,
ғулларни кемириб йиғлади итлар,
буюк бошни кесди қилч ярақлаб.

Турда бош қолмади...
қолмади довлар,
хотин-халаж қолди мотам кўтариб,
«Бизга тик қарама», — буюрди ёвлар,
ёвларга терс қараб яшади бари.

Таланди самовий тулпор уюри,
таланди зарлари,
зеб-у забари,
«Терс қараб ўлинг», — деб ёвлар буюрди,
ёвларга терс қараб жон берди бари.

Лаҳадга кирдилар ўзларин қарғаб,
қолмади арабий,
туркий хатлари.
«Тугингиз, — деди ёв, — тескари қараб»,
ёвларга терс қараб туғилди бари.

Туғилди,
туғилди,
туғилди куллар,
қирқиди қирқилган — имдодга муҳтож,
ёвларга терс қараб итлардай хураб,
бир-бирига душман,
бир-биридан кож.

Жўмардлар қирилган Туронзаминда
дўзахий тажриба палласин кўрдим:
эшшақ суверати бор қай бир қавмда,
қай бирида тўнғиз калласин кўрдим.

Бу ҳолда буваклар бўғилиб ўлар,
кул Билол эзилиб йиғлар фалакда...
Ўзларин ёндирар борлиқдан тўйган
Бадахшон лаълидай асл малаклар.

Мўминлар беш бора Аллоҳни эслар
саждага бош қўйиб жаллод тошига.
Ўғрилиб сал ортага қарайин деса,
бошига урарлар,
фақат бошига.

Борми эр йигитлар,
борми эр қизлар,
борми гул бағринда жўмард нолалар,
борми бул туғроқда ўзлагин излаб,
осмон-у фалакка етган болалар.

Бор бўлса,
аларга етқариб қўйинг,
бир бошга бир ўлим демаган эрмас,
шаҳидлар ўлмайди,
бир қараб туйинг:

Ёвга терс қараган мусулмон эмас!
Ёвга терс қараган мусулмон эмас!
Ёвга терс қараган мусулмон эмас!
Ёвга терс қараган мусулмон эмас!
Ёвга терс қараган мусулмон эмас!

ТУНГИ МАНЗАРА

Ўрмонлар жим, йиғламас шамол,
сой сайрамас, бақалар жимдир.
Ингроқларга тўлиб кетган тун
ғамгин қўшиқ айтади кимдир.

Отим ўлган, қилчим синган,
мажақланган совет, қалқоним,
Ким ташлади мени бу чоғга,
қайда қолди ёруғ осмоним!

Қаердаман, қайга борарман,
қора зиндон нақадар чуқур,
фақат тоқнинг буржидаги ой
туйнукчадан тушар хира нур.

Барча азоб камлик қилгандай
сой сайрамас, бақалар жимдир,
ғўё мазах қилгандай гоҳ-гоҳ
ёпиб турар туйнукни кимдир...

ТОНГ ОЧАР КЎЗЛАРИН...

Тонг очар кўзларин эриниб,
севинчдан йиғлайди қиёқлар,
чечаклар жилмаяр севиниб,
шамолда чўмилар гиеҳлар.
Ўйноқи шўғалар — болалар
жимгина тарқалар сайхонга,
ўргимчак тўқийди толалар,
хонқизи боради меҳмонга.
Қурбақа варақлар баёзин,
гулдан бол сўради арилар,
чигиртка қайрайди овозин,
парвозда ниначи — парилар.
Чумоли, меҳнатқаш чумоли,
куйинма, атрофга бир қара —
майсалар, оҳ, қандай ҳумоли,
дунёни қилма кўп масҳара.

ДИҚҚАТ! ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ
БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТКАЗАДИ.

Ғолиб
20 МИЛЛИОН
сўм пул мукофоти билан
тақдирланади.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҚАМДА
ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА

2024 йилнинг сентябрь ойида –
Ўқитувчи ва мураббийлар
байрами арафасида
топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР КЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР
БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

Танлов ҳомийлари билан танишинг:

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИДА ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ
ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ

«МИЛЛИЙ
ТИКЛАНИШ»
ДЕМОКРАТИК
ПАРТИЯСИНИНГ
ИЖТИМОЙ-
СИЁСИЙ
ГАЗЕТАСИ

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,
Nuriyman ABULXASAN,

Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
To'liqin TESHABOYEV,
Feruz MUHAMMEDJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda
ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Gazetada Internet
ma'lumotlari
va suratlaridan
foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga
qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afvor OMONBOYEV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruz XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 321
Bosishga topshirish vaqti 1:45.
Topshirildi 02:45

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456